



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

YUZ BILAN YUZLASHGAN "SAODAT"

... Asrluk umr bir jurnal uchun – buyuk davr. "Saodat" shunday ulug'likka yetdi, muhtasham yuz yillikning barakatini ko'rdi. Qog'ozlar qatida taqdirilar suvratini, kechinmalar tasvirini chizdi. Ayoli bor o'zbeki xonadonlarning hammasiga muhib bir kuy kabi sizib kirdi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston xotin-qizlari jamiyatining hur damini tasdiqlovchi muhim hujjatga aylandi...



(5-sahifada o'qing)

TAHLIL

KORRUPSIYA – KELAJAKKA TAHDID



Xabar berilganidek, 5 mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning korruptsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda davlatimiz rahbari tomonidan tilga olingan muhim masalalar korruptsiyaga toqatsiz bo'lgan har bir yurtdoshimizni befarq qoldirmasligi tabiiy.

QAMROV

Prezident ma'ruzasining korruptsiya bilan bog'liq qamrovi shu qadar kengki, hatto, amaldagi qonunchiligimizda korruptsiyaviy jinoyatlarning aniq ro'yxati yo'qligini ham bilib oldik.

KORRUPSIYA NIMA?

Ochig'ini aytganda, bugun hamma ham bu haqda aniq-tinik tasavvurga ega, deb hisoblash juda qiyin. Chunki...

Bir ota torroq davrada: "O'g'im yog'li joyda ishlaydi", debdi. "Qayerda ekan?"

so'rashibdi davradoshlari qiziqib. Shunda u: "Korruptsiyada!" deb javob beribdi ko'kragini kerib.

Tushunmaganlar: "O'v!!!" debdi, tushunganlar: "Astag'firulloh". Tushunmaganlar tasavvurida: "Qo'lga tushmagan o'g'ri – o'g'ri emas. Kim qayerda, qanday qilib pul topsa, qandini ursin!" degan mafkura hukmron bo'lib ulgurgan. Tushunganlar esa davlatda "korruptsiya" degan "yog'li" tashkilot bo'lishi aslo mumkin emasligini, bu "o'g'ri" davlatning korruptsiyaga qarshi kurash organida ishlashini yaxshi biladi.

Demak, yaqin-yaqinlargacha korruptsiyaga qarshi kurash olib borishi kerak bo'lgan organlar ayrim vakillarining o'zi aynan korruptsiya bilan shug'ullanganidan dalolat beradi. Agar shunday bo'lmasa edi, so'nggi 8 yildan oshiqroq davr mobaynida qanchadan qancha sobiq mansabdorlar jinoyi javobgarlikka tortilib, qamoq jazosiga mahkum etilarmidi?

O'z xizmat lavozimini suiiste'mol qilib, pora berish yoki olish, vakolatlaridan foydalanib, o'z manfaatini, ya'ni pul topish, qimmatbaho buyumlar, moddiy

mulkning boshqa turlarini qo'lga kiritish yo'lida jamiyat va davlat manfaatlariga zarar keltiradigan noqonuniy faoliyat olib borishga "korruptsiya" deyiladi.

Prezident ma'ruzasida korruptsiyaning oldini olish, uning omillari bilan ishlash uchun 117 ta vazirlik va idoradagi "korruptsiyaga qarshi ichki nazorat" tuzilmalarida 1 ming 285 xodim ishlayotgani aytiladi. Lekin korruptsiyaviy omillarni bartaraf etishda ularning o'rni ham, mas'uliyati ham sezilmayotgani qayd etildi.

Shu bois yig'ilishda mazkur vazirlik va idoralardagi "korruptsiyaga qarshi ichki nazorat" tuzilmalari rahbarlarini ishdan olish va ularning o'rniga halol, fidoyi va professional kadrlardan qo'yish, ularni oldiga aniq vazifalarni belgilab berish topshirildi.

KORRUPSIYAGA TOQATSIZ AVLOD TARBİYASI

Prezidentimiz jamoatchilik vakillari va nodavlat tashkilotlariga murojaat qilib: "Korruptsiyaga qarshi kurash – umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon

ishidir. Umuman, bu jarayondan hech kim chetda turmasligi kerak", deb ta'kidlaganlari bejiz emas. Jamiyat oldiga muhim vazifa ham qo'yildi: "Islahotlarimiz natijadorligi avvalo, sadoqatli, fidoyi va korruptsiyaga toqatsiz yangi avlodga bevosita bog'liq. Bu ishda fikri toza yosh avlodni tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanishi shart".

"TARBIYA" FANI

Maktablarimizda ilgari o'qitib kelingan "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" hamda "Dinshunoslik asoslari" fanlari birlashtirilib, "Tarbiya" fani joriy qilingan. Davlatimiz rahbari shu fan doirasida o'g'il-qizlarimizga halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik kabi ezgu g'oyalarni sodda tilda tushuntirib borish kerakligini ham alohida ta'kidladi.

Demak, davlat rahbari ilm-ma'rifatni korruptsiyaga qarshi eng asosiy yechim sifatida ko'ryapti.

ONGNI O'ZGARTIRISH PAYTI KELDİ

Ko'rinib turibdiki, korruptsiyaning, katta yoki kichik bo'lsin, har qanday ko'rinishi amalda shaxs manfaatining jamiyat manfaatidan ustun kelishini bildiradi.

Biz, avvalo, odamlarning ong-tafakkuridagi korruptsiyaga moyillikni siqib chiqarishimiz, Prezidentimiz da'vat etayotganidek, hammamiz shu g'oya atrofida birlashib, yakkilik bilan kurash olib borishimiz lozim.

KORRUPSIYANING O'Q ILDIZLARI

"Korruptsiyani yengish uchun birinchi navbatda uning ortiqcha hashamat va dabdaba degan "o'q ildizlarini" quritishimiz shart", dedi Prezident.

(Davomi 2-sahifada)

BUGUNNING SHE'RI



Senga faqat shodlik yarashar bugun,
Menga ko'chib o'tsin dilda bor g'aming.
Qara, gullar terib keldim sen uchun,
Onajon, bu bayram – sening bayraming.

Ko'ksim kuyib ketar ko'zing yoshlansa,
Bir bora jilmaysang, tog' bo'lar ko'nglim.
Gul kabi ochilib bahor boshlabsan,
Bu bayram seniki, beg'ubor singlim.

Opa bo'lib bir bor koyiganing yo'q,
Uka bo'lib ko'ngling so'roldim qachon?
Beparvo shoirning gunohidan o't,
Bu bayram seniki, munis opajon.

Yursangiz shamollar izingiz izlar,
Kulsangiz ko'ksimda yorishar uchqun.
Pariruxsor qizlar, farishta qizlar,
Bu bayram sizniki, sizniki bu kun.

Siz borsiz, yer dilbar, samo ham gulgun,
Siz borsiz – hayot bor, bordir xayollar.
Ming bor qutlug' bo'lsin, muborak bo'lsin,
Bu bayram sizniki, aziz ayollar!

Iftixor XONXO'JAYEV

TALQIN

NAMOZMI YOKI NIYOZ?

"Xamsa" – hazrat Navoiydan eng buyuk yodgorlik. Undagi dostonlarda xotin-qizlar timsollari yorqin tasvirlangan, ilm-ma'rifat bobida ularning erkaklardan aslo kam emasligi o'z ifodasini topgan.



TEMURIYLAR DAVRI JADIDI

Birinchi doston bo'lmish "Hayrat ul-abror"ning 25-bobi – "Ibrohim Adhamning Ka'bag'a namoz bila borg'oni va Robiayi Adviyag'a Ka'baning niyoz bila kelgani" deb nomlanib, hikoyat keltiriladi. Unda Robia al-Adaviya timsoli yaratilgan. Voqeasiga ko'ra, Shayx Ibrohim Adham Makka ziyoratiga yo'l oladi. Ka'ba joylashgan katta cho'l boshlanganida u har qadamda joynamoz solib, ikki rikatdan namoz o'qiydi. Shu yurish bilan u o'n to'rt yil deganda Makkaga yetib boradi. Sahrodagi har bir g'iyoh tilga kirib, uni madh etadi. Lekin shuncha zahmat chekib yetib kelsa, Ka'ba joyida yo'q emish.

Shayx oh-u fig'on chekadi. Shunda Hotif farishtadan ovoz keladiki, Ka'ba ziyoratiga kelayotgan bir ayol Allohga shavq-u muhabbati yuki og'irligidan qaddi bukilib, betob bo'lib qolgan uchun Ka'baning o'zi uning ziyoratiga ketgan.

Bu zaifa – Robia al-Adaviya edi. Keyin Robia bilan Ibrohim Adham o'zaro ko'rishishadi. Unisi bunisini maqtaydi, bunisi unisini... Oxiri, Robia gapning po'stkallasini aytadi.

Robia dedi anga: "Ogoh bo'l, – Kim necha yil bodiyada borcha yo'l.

(Davomi 6-sahifada)

MILLAT MULKI

"DUNYODA TURMOQ UCHUN DUNYOVIIY FAN VA ILM LOZIMDUR"

Tayinki, har qanday hushi o'zida bo'lgan insonning, hamiyatli va qo'rqmas qavmning, oq bilan qorani farqlay bilgan elning eng ezgu orzusi erk otlig' tansiqdan tansiq ne'matga noil bo'lmoqdan iborat. Ayniqsa, agar qaramlik, istibdod degan bo'yinturuqqa shafqat degan tushuncha tamoman begona bo'lganida, mazkur orzu-armon olovga, alangaga aylanadi. O'tgan asrning ibtidolarida Turkistonda elning erki ana shunday dahshatli bo'yinturuq iskanjasida edi. Tarixning murakkab bir pallasida, XX asr bo'sag'asida Turkiston jaddilarining chinakam yo'lbo'shchisi hazrat Mahmudxo'ja Behbudiy elni erkka eltmoqday ulug'vor va muhtasham niyat bilan tengsiz kurash maydoniga kirib keldi va benihoya qamrovli faoliyatini boshladi. Bu faoliyatning naqd natijalari tadqiqotchilar, turli soha vakillari tomonidan xolis va ilmiy jihatdan jiddiy o'rganilgan va yuksak baholangan.



(Davomi 3-sahifada)

FAXR

Yuksak orzular og'ushida

Inson o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, shu yo'lida astoydil harakat qilsa, albatta, o'z niyatiga erishar ekan. Men ham o'n yil deganda nihoyat, Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'ldim. Prezidentimiz qaroriga binoan ana shunday yuksak mukofot bilan taqdirlanganlar safida o'zimging ham ism-sharifimni o'qib quvonchdan ko'zlarim yoshga to'ldi, qalbm g'ururdan entikdi. Ana shu sururli damlarda onajonimning hishayajonini bir ko'rsangiz edi!



Maktabda o'qib yurgan kezlirimdayoq ko'nglimda tadbirkorlikka qiziqish uyg'ongan. Kollej va universitetda tahsil olayotgan paytlarimda bu yo'nalishda turli seminar va o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etib, o'z biznes loyihalarim bilan qator tanlovlarda g'olib bo'lganman.

Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratila boshlagach, men ham ushbu yo'nalishda tadbirkorlik bilan shug'ullanishga qaror qildim. Ma'lumki, Angren shahri Chotqol va Qurama tog' tizmalari etagida joylashgan. Uning atrofidagi sharqiroq soylar, quyug qarag'ayzor va archazorlar, osmono'par cho'qqilar turizm soha-

manbalar yordamida muttasil bilimni oshirib bordim. Taniqli tadbirkorlarning bir qator loyihalarida qatnashib, ularning ko'magida marketing yo'nalishida ishlash ko'nikmasiga ega bo'ldim.

Ayni damda biz mahallamizdagi 30 dan ortiq kishini doimiy ish bilan ta'minlaganmiz. Ular orasida "Ayollar daftri" va "Yoshlar daftri"da ro'yxatda turuvchi insonlar ham bor. Ayni kunlarda Angren tog'larida eko va sport turizmini rivojlantirish loyihasi ustida ishlayapmiz.

Men Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lishning ahamiyati hamda mas'uliyatini yaxshi anglayman. Shunga munosib bo'lish uchun bor bilim va tajribamni ishga solib, yangi-yangi g'oyalarni ro'yobga chiqarish, shu orqali ish o'rinarini ko'paytirishga harakat qilaman. Zotan, hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek:

Naf'ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf' o'zungga ko'prakdurur.

Oysha O'ROLOVA,
Angren shahridagi
"Yangibod – kelajak sari"
oilaviy korxonasi rahbari,
Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori



KORRUPSIYA — KELAJAKKA TAHDID

Boshlanishi 1-sahifada.

Holbuki, muqaddas islom ta'limotida ham, boy milliy merosimizda ham, demokratik jamiyat qonunlarida ham hech kimga boyligini dabdabozlik va hashamat tarzida pesh qilishga izn berilmaydi.

“Eng achinarlisi, bunga taniqli shaxslar bosh-qosh bo'lyapti, odamlar ularga tenglashaman deb o'zini “o'qqa-cho'qqa” uryapti. Bu borada ayrim rahbarlar o'zining kamtarona turmush tarzi bilan barchaga namuna bo'lish o'rniga, bunday soxta qadriyatlar asiriga aylanib, noqonuniy daromad topishga intilayotgani ham bor gap”, dedi yana Prezident.

Shu bois davlatimiz rahbari parlament palatalari, mahalliy kengashlar, jamoatchilik vakillari, mahalla raislari, nuroniylarni bu masalaga bosh-qosh bo'lib, aholi orasida tushuntirish ishlari kuchaytirishga chaqirdi.

Chindan ham, to'y-hashamlarimizdagi dabdabalar jamiyatimizda nosog'lom musobaqaga aylanib ketyapti. Bu bunga qurbi yetmaydigan or-nomusli kishilarni ruhan og'ir ahvolga solib qo'yyapti. Hatto, ko'pchilik buni ongli hayotining asl mazmuni darajasida bilib, topgan-tutganining katta qismini shunga sarf etishi isrofdan boshqa narsa emas. Ayni shu maqsadlar uchun korrupsiyaga qo'l urayotganlar ham topiladi.

Davlat rahbari bir yilda xalqimiz qo'lidagi 43 milliard so'm mablag' shu dabdabalarga sarflanganini aytdi. Bir qalamkash sifatida: “Bunga nechta kitob sotib olsa bo'ladi? Nechta kitob chiqarish mumkin? Qancha ujoy quriladi? Boringki, qancha texnika, ishlab chiqarish qurollari sotib olish imkoni bor?” deb o'ylab qoldim.

35 MING DOLLARLIK TORT

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda Samarqandda bir to'y uchun 3 hafta mobaynida tayyorlangan balandligi 4 metr keladigan 35 ming AQSh dollarlik tort ko'rsatildi.

Bir tomoni – demokratiya: har kimning ixtiyori o'zida. Ikkinchisi – bozor iqtisodiyoti: topgan pulini nimaga sarflash – har kimning o'z xohishi. Shuning uchun qonunan bunga qarshi hech qanday chora ko'rish imkoni bo'lmasligi mumkin. Lekin “jamoatchilik fikri” degan tushuncha ham bor-ku.

Birinchi, bu dabdaba bilan to'y egasi nima ni isbotlamoqchi? Nimani ko'z-ko'z qilmoqchi? Ikkinchi, bir to'yda uydan ham katta tort iste'mol qilinarмикan? Uchinchi, tort qurg'umi bir kundandan keyin yesangiz, zaharlanishingiz mumkin. 21 kun mobaynida tayyorlangan tortning salomatlikka zarari yo'qligiga kim kafolat beradi? Hech bir davlat idorasining to'yxonalarda tortlayotgan noz-ne'matning sanitariya-gigiyena talablari mos kelish-kelmasligini nazorat qilish huquqi yo'qmi? Axir, to'yg shu davlat fuqarolari keladi-ku.

Savollar ketidan savollar yog'ilaveradi.

NEGA YANA ORQAGA QAYTDIK?

Kovid pandemiyasi bashariyat boshida og'ir sinov edi. “Har yomonning bir yaxshi tarafi bo'ladi”, deganlaridek, o'sha davrda to'y-ma'rakalar binoyidek ixchamlashib qolgan edi. Bir og'aynim o'sha kunlari o'g'lini kam kishi bilan to'y qilib, uylantirib, shu maqsadda oldindan yig'gan mablag'ga kelin-kuyov uchun kreditga ikki xonali yangi uy olib berganini aytib, quvongan edi.

Afsuski, kovidni unuta borganimiz sari to'y-ma'rakalardagi tejamkorlikni ham yana esdan chiqardik. Hashamdorlik va dabdabozlik qaytadan katta illatga aylanib ulgurdi. Bugun taraqqiyotimizga to'siq bo'lib turibdi.

To'y-ma'rakalarni ixchamlashtirish borasida bir asrdan buyon kurashiladi. Buxoro amirligining so'nggi hukmdori Said Olimxon bu borada qattiq farmon chiqargan, jadid bobolarimiz qancha meros qoldirgan edi. Keyin ham bu bo'yicha ko'p qonunosti hujjatlari qabul qilindi, komissiyalar tuzildi. Ammo bu illatdan qutulganimiz yo'q.

Yurtboshimizning ayni da'vati bizni xalq sifatida yana bu o'ta muhim masalaga munosabatimizni bozor iqtisodiyoti va demokratiya talablari asosida tubdan o'zgartirishga undaydi.

Yaqin o'tmishni qo'ya turaylik, buyuk Navoiy bobomiz soxta shon-shuhrat qozonish uchun hovuchlab gavhar sochmoqdan xasislik yaxshiroq, deb hisoblaydi. Shoir och qolib, boylarga dasturxon yozadiganlarni ham qattiq qoralaydi:

Yoyar anga supraki, ul och emas,
Berur anga to'unki, yalang'och emas.

Ot anga tortarki, yuz ilqisi bor.

Elga to'y-tomoshga qilib berish uchun nuqul tamagirlik payidan bo'lib, xalq boyligiga ko'z olaytirgan kimsalarni ham qoralaydi:

Bergali olmoq ishidin bo'l yiroq,
Bermak uchun olmag'aning yaxshiroq, –

deydi. Bu bayt quloqlarimizda xuddi bugun aytilgandek jaranglayotganiga qoyil qolmay iloj yo'q.

Ilm-ma'rifatga yuksak e'tibor berilayotgan hozirgi zamonda biz peshona teri bilan topgan mablag'imizni to'y-tomoshga emas, farzandlarimizning kelajagi, ilm olishi, zamonaviy kasb-hunarlarini o'rganishiga sarflaylik. To'y-hasham dabdabozligi musobaqasini ilm-ma'rifat musobaqasiga aylantiraylik.

Ehtimol, aytish noqulayroqdir, lekin rahmatli ota-onamizning zurriyod-u kelin-kuyovlari orasidan 19 ta dissertatsiya yoqlandi. Shuning 16 tasi 2018-yildan keyin, ya'ni O'zbekistonimizda ilmiy darajalar olish uchun dissertatsiyalar yoqlashning oqilona tizimi yaratilganidan keyin himoya qilindi. Axir, shungacha amalda mamlakatimizda dissertatsiya yoqlash boshi berk ko'chaga kirib qolgan, ilmiy darajasi bor kadrlar defitsiti avjiga chiqib ulgurgan edi.

Prezidentimiz qayta-qayta uqtirib kelayotganidek, jamiyatni ilm-ma'rifatga olg'a yetaklaydi. Boshqa najot yo'li yo'q.

Mamlakatimizda ilm-ma'rifat musobaqasi boshlangan. 2024-yili maktablarimiz bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasasiga kirish reytingi o'tkazildi. Dastlabki 20 ta o'rinni egallagan maktablar e'lon qilindi. Masalan, Qiziltepa tumanidagi 25-maktab bitiruvchilarining 90 foizi, Navbahor tumanidagi 30-maktab bitiruvchilarining 87 foizi, Oqdaryo tumanidagi 52-, Asakadagi 11-, Chustdagi 52-, G'ijduvondagi 63- hamda Paxtaobodagi 21-maktab bitiruvchilarining 85 foizi oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirgan.

Bu qanday go'zal statistika!
Bizningcha, shu maktablar, shunday ilg'or tuman va shaharlar tajribalarini mamlakat bo'yab ommalashtirish, har yili shunday maktablar, tuman va shaharlarni rag'batlantirish lozim.

ESHKIDAN QUVSANG, TESHIKDAN...

Korrupsiya – shunday shaytoniy illatki, uni eshikdan quvsang, teshikdan kiradi. Ya'ni, unga qarshi kurashni bir kun ham to'xtatib bo'lmaydi. Davlat korrupsiyaning tomirini qirg'ishi kerak. Axirog'i, oqibatni emas, sababni yo'qotish lozim. Bu xuddi kasalni davolash emas, uning oldini olishga o'shaydi.

Shuning uchun davlatimiz rahbari: “Barchamiz yaxshi tushunamiz, korrupsiyaga qarshi kurash jarayoni hech qachon aniq muddat bilan cheklanmaydi”, dedi.

TOZALANAYOTGAN OLIY TA'LIM

Xalq sifatida korrupsiyaga qarshi kurashning dastlabki shirin mevalarini to'yapmiz.

Bir haqiqat shuki, jamiyatda nima kamchil, ya'ni defitsit bo'lsa, korrupsiyaga keng yo'l ochiladi. Yaqin yillarda bitiruvchilarning 9 foizigina oliy ta'lim muassasasiga kirish imkoniga ega edi. Bu, tabiiyki, o'qishga kirish jarayonidagi korrupsiyaga keng yo'l ochdi. Keyin “supershartnoma” nomi bilan poraxo'rlikning ikkinchi “bosqichi” avj oldirildi. O'qish jarayonida yana kichik poraxo'rliklar ham to'xtamadi.

Keyingi yillarda oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurash yo'lida bir necha muhim qadamlar tashlandi. Birinchisi – kirish uchun yetarli ball to'plolmagan abituriyentlarga birinchi o'quv yili uchun nisbatan kattaroq shartnoma miqdori belgilandi. Bu ham ball qancha yetmaganiga qarab oshib yoki kamayib boradigan qilindi. Ikkinchisi – kvotalar oshirildi. Davlat oliy ta'lim muassasalarini soni ham ko'paydi. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarini filiallari ochildi. Uchinchisi – abituriyent kirish testini topshirganidan keyin amalda bir emas, bir yo'la beshta oliy ta'lim muassasasiga kirish imkoniga ega bo'ldi. Ya'ni, to'plagan ball bittasiga yetmagan bo'lsa, bosh-qasiga kiradi. To'rtinchisi – nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga keng yo'l berildi. Xususiy sarmoya oliy ta'lim tizimiga ham kirib keldi. Kechagina mamlakatdagi jami oliy ta'lim muassasalarini soni 65–70 tani tashkil etar edi. Bugun nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining o'zi 65 ta! Beshinchisi – 2019-yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1030-sonli qarori bilan oliy ta'lim muassasalarini va ilmiy tashkilotlarda mehnat qilayotgan ilmiy darajasi bor mutaxassislariga bir yillik ilmiy-metodik faoliyat uchun qo'shimcha haq to'lash joriy etildi. Fan nomzodi yoki falsafa doktori ilmiy darajasi borlarga 30, fan doktorlariga esa 60 foizgacha keyingi yil davomida haq to'lanyapti.

Yaqin kelajakda bitiruvchilarning 50 foizi oliy ta'lim muassasasi yoki tashkilotiga o'qishga kiradigan bo'ladi.

Bularning bari poraxo'rlikning tomirini qirg'ishga xizmat qilaypti.

YASHIRIN IQTISODIYOTGA BARHAM BERISH ZARURATI

Imtiyozli sohalarni soqit qilganda, qonuniy daromad topgan har qanday fuqarodan belgilangan tartibda daromad solig'i undiriladi. Davlat byudjeti shu asosda shakllanadi.

Ma'ruzada tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib, ishlab chiqarishi yoki xizmatlarni tashkil etishda bir necha ishchi kuchidan foydalanib kelayotgani ehtimoli bo'la turib, minglab korxonada biror nafar xodim ham ishlamasligini, yana minglab korxonada 2 yoki 1 nafar ishchiga maosh to'layotganini ko'rsatganidan kelib chiqib, bu soliq idoralari yashirin iqtisodiyot bilan sust ishlayotganidan dalolat berishi ta'kidlab o'tildi.

INVESTITSIYA VA KORRUPSIYA

Taraqqiyotdan orqada qolgan hech bir davlat investitsiyasiz rivojlana olmaydi. Korrupsiya esa mamlakatga investitsiya kirib kelishining ham yo'lini to'sadi. Shuning uchun ham: “... Jinoyatchilik jilovi mahkam bo'lgan, xavfsiz joyga investor ko'proq mablag' kiritadi, odamlarimizning ishonchi yanada ortadi”, dedi Prezident.

Davlat rahbari bu boradagi muammolar va ularning yechimlarini tahlil qilar ekan, adolatlilik fikrini bayon etdi: “Oldingi 25 yil davomida bu tushunchalar bizga yeti edi. Ko'rib ko'rmaslikka olinardi. Bularni hech biri o'zidan o'zi bo'lgani yo'q. Hammasiga mashaqqatli mehnatimiz bilan erishdik. Eng muhimi, bularning hisobiga aholi, tadbirkorlar, xorijiy hamkorlarimiz, xalqaro tashkilotlar va investorlarning islohotlarimizga ishonchi mustahkamlandi. So'nggi yetti yilda 120 milliard dollardan ortiq investitsiya kirgani, iqtisodiyotimiz 2 karra o'sib, o'tgan yili 115 milliard dollarga yetgani buning yaqqol isboti emasmi?”

OQIBAT EMAS, SABAB BILAN KURASHISH USTUNLIGI

Ma'ruzada ta'kidlanganidek, yo'l harakati xavfsizligi inspektorlari “bodi-kamera” bilan xizmat o'tayotgani, avtoraqamlik auksionda sotilayotgani, “qo'l radari” va qog'oz bayonoma tuzish bekor qilingani uchun korrupsiya omillari keskin kamaydi.

BUGUNGI KUNNING FARQIGA BORAYLIK!

Dunyoda eng yomon narsalardan biri – davrdan orqada qolish. Bu amalda o'zgartirgan zamonda ham eski, ya'ni qolqoq tushunchalar bilan yashashni anglatadi.

Prezident aynan shu muammoni ko'tardi. U kishi mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlikni qadrlash, kechagi kun bilan bugungi kunning farqini yaxshi tushunish, mahallada, to'y-ma'rakada ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'y-maslik, halollik va shukronalik bilan hayot kechirishni tushuntirish ishlari bo'yicha jamiyatimizda yaxshi tajribalar yetishmasligini afsus bilan qayd etdi.

YANGILANGAN ISH USULI

Bundan buyon sektorlar faoliyati bilan prokuror, ichki ishlar va soliq shug'ullanmaydigan, ularning o'rniga endilikda Bosh vazir o'rinbosarlari o'ziga tegishli sohalarda kuchi va tizimi bilan shug'ullanadigan bo'ldi.

OG'RIQLI YERIMIZ

Ma'ruzada korrupsiyaviy jinoyatlarning 75 foizi tuman va mahallada maishiy korrupsiya shaklida sodir bo'layotgani qayd etildi. Masalan, infratuzilmaga ulanish, litsenziya olish, imtiyozli kredit ajratish, ishga qabul qilish, malaka oshirish kabi yo'nalishlarda korrupsiya omillari ko'p.

TO'G'RI PROPORSIONALLIK

Mamlakat taraqqiyoti va korrupsiyaga qarshi kurash – bir-biriga chambarchas bog'liq, ya'ni to'g'ri proporsional. Korrupsiya yo'q yoki kam davlatdagina yuksak taraqqiyotga erishiladi. Bu – oddiy haqiqat.

Shavkat Mirziyoyev Prezident sifatida O'zbekistonni kelajagimizga og'ir tahdid hisoblanadigan korrupsiyadan xoli mamlakatga aylantirish borasida izchil kurashning tashabbuskori bo'lib kelyapti. Bu tarixiy va muqaddas vazifa hisoblanadi. Chunki davlat korrupsiyaga qarshi kurashning tashabbuskori ham, buyurtmachisi ham, ijrochisi ham, nazoratchisi ham bo'lishi zarur. Biroq: “Ushbu masalada faqat davlatning sa'y-harakati bilan kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Bu – butun jamiyatimizning ishi”, dedi davlatimiz rahbari.

Yangi davr har birimizning Vatan va xalq taqdiri uchun hayot-mamot masalasi bo'lmish shu ezgu ishga kamarbasta bo'lishimizni taqozo etadi.

Sultonmurod OLIM,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi

YANGI NASHR



XALQ UYIDA TAQDIMOT

Davlatimiz rahbari 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida “Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonda barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir”, degan edi.

Darhaqiqat, jadid bobolari-miz xalqni ma'rifatli qilish, erkin demokratik davlat qurish uchun qonun ustuvorligi shartligini yaxshi bilgan. Bu fikrni yurtimizda o'zaro tenglik tamoyillariga asoslangan huquqiy jamiyatni barpo etish uchun o'sha zamonning ilg'or ziyolilari tomonidan tuzilgan va 1917-yilda yaratilgan Maromnoma, bugungi tilda aytadigan bo'lsak, Konstitutsiya ham tasdiqlaydi.

O'tgan bir yil davomida yurtimizning ko'zga ko'ringan olimlari, jurnalist, yozuvchi-shoir, bir so'z bilan aytganda, ziyolilari dolzarb masalalarga bag'ishlangan maqolalari bilan “Jadid” gazetasi sahifalarini bezadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi Kengashlarining a'zolari, deputatlar, senatorlar, vazirlik va idoralarning mas'ul rahbarlari

nafaqat jadid bobolar, balki ular qatorida yurt ravnaqi, ozodligi va ma'rifati yo'lida tengmang teng kurashgan jadid momlar, ularning mashaqqatli hayot yo'li, qoldirgan boy ilmiy merosi haqida ma'lumot olish mumkinligi alohida ta'kidlandi.

Shundan so'ng, adabiyot-shunos olim, Milliy kinematografiya agentligi direktori Shuhrat Rizayev so'zga chiqib, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tashkil etilgan “Jadid” gazetasi Vatan va xalq manfaatlari yo'lida jon fido qilgan millat oydinlari hayoti va faoliyatini keng targ'ib etishda o'ziga xos tafakkur maydoni bo'lib xizmat qilayotgani, mamlakat ziyolilari uchun o'ziga-bir minbar vazifasini o'tayotgani xususida gapirdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari, shoira Farida Afro'z davriy nashrlar, adabiyot va san'atga oid fikr va mulohazalarini bildirdi. “Milliy



ham borligi alohida e'tiborga molik hodisa.

Kuni kecha “Jadid” gazetasi 2024-yil davomida chop etilgan sara maqolalar asosida tayyorlangan “Tilda, fikrda, ishda birlik” kitobining navbatdagi taqdimoti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida bo'lib o'tdi.

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida o'tkazilgan mazkur tadbirga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Isoilov so'zga chiqib, avvalo, yurtimizda erishilayotgan yuksak natijalar va o'zgarishlarda ayollarimizning sezilarli hissasi borligini e'tirof etgan holda, yig'ilgan xotin-qizlar bayram munosabati bilan tabriklandi. Ayni chog'da siyosiy maydonda ham, vaqtli matbuotlarda ham opasillarimizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy faolligi sezilarli darajada oshgani e'tirof etildi. Xususan, “Jadid” gazetasi 8-son qilingan maqolalar orqali

tiklanish” partiyasi yetakchisi, deputat Alisher Qodirov hamda filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karim ma'ruzalarida mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda jadid bobolarimizning ilg'or g'oyalari to'yingan, zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan yaxshi xabardor, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlarni tayyorlash, shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlodni ezgu g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda “Jadid” gazetasi kabi bosma ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos ekanligi to'g'risida so'z yuritdilar.

Tadbir so'ngida yig'ilgan xalq vakillariga “Jadid” kutubxonasi rukni ostida chop etilgan “Tilda, fikrda, ishda birlik” yilnoma kitobi bayram arafasida sovg'a o'laroq taqdim etildi.

Nozima HABIBULLAYEVA



Qarshimda shovullab oqar bir daryo



Qutlibeka RAHIMBOYEVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi

QUVONCH

Tog'lar yelkasiga sig'magan irmoq –
Sasidan sukunat eshigi sindi.
Rangin chechaklarga aylandi tuproq,
Zaminning chiroyi endi bilindi.

Quyoshniki bo'ldi bepoyon samo,
Nurlarning yo'llari uzaydi.
Orzuli-havasli kunlar beorom
Novdalarni gullar bilan bezaydi.

Ildizdan boshlab uchiga qadar
Gulga to'lib ketdi og'ochlar jismi,
Bog'larda adashib qoldi shabada,
Rangidan mastmi yo bo'yidan mastmi?

Oftobning anhora chizgan naqshini
Majnunol kun bo'yi ko'rib to'ymaydi.
Yuksakda kuylamoq shuncha yaxshimi,
Odamlardan ko'proq qushlar kuylaydi.

Yana o'z ranglari qaytgan bag'ringda,
Yurtim, ko'nglim to'lib yurib quvondim.
Yana kuz zahmati, qishning zahridan
Omon chiqqaningni ko'rib quvondim.



Farida AFRO'Z,
"Do'stlik" ordeni sohibi

Ko'klab ketdi
Ko'ksimdagi nayzalar,
Gul ochmoqda
Kiprigimda maysalar,
Bir bor kelar,
Ming yilda bu lahzalar,
Yor kelar kun keldi, bahor, kelaqol.

Entikadi,
Yuragimdek daryolar,
Har kurtakda
Kular bo'ldi dunyolar,
Qorday bugun
Erib bitdi ro'yolar,
Yor kelar kun keldi, bahor, kelaqol.

Kunduz bilan
Tunlar bugun tenglashar,
Musichalar
Bir-birovin "siz"lashar,
Va nihoyat,
Oshiq dillar tillashar,
Yor kelar kun keldi, bahor, kelaqol.

Sen bahona
G'uncha ko'nglim ochardim,
Yor poyiga
Atir so'zim sochardim,
Boshim olib,
O'zim o'zdan qochardim,
Yor kelar kun keldi, bahor, kelaqol.



Akshagul TULEGENOVA,
"El-yurt hurmati" ordeni sohibi

JADID AYOLLAR

Eh, jadid ayollar, jadid ayollar,
Sizni charchatdimi hadik, xayollar.
Sizni o'ldirdilar ko'zsiz jaholat –
"Egasiga itday sodiq a'yonlar"...
Eh, jadid ayollar, jadid ayollar.

Siz millatning faxri, gul-lolalari,
Xayriniso, Mariyam, Diloralari,
Zolim zamonaning dilporalari,
Eh, jadid ayollar, jadid ayollar.

O'n yetti yoshida Matluba xonim
Ko'tarmoqlik uchun ayolning shonini
"Ezilgan millatim" deb, ezgan jonin...
Eh, jadid ayollar, jadid ayollar.

Siz yurtning onasi, volidalari,
Tilda, fikrda, ishda komilalari.
Oybekni kashf etgan olimalari –
Eh, jadid ayollar, jadid ayollar.

Davr keldi, ammo yo'qdir o'zlari,
Jadiy turkumida o'tlig' izlari,
Shundan yuzi oydin o'g'il-qizlarin,
Eh, jadid ayollar, jadid ayollar!

Armonim shu: sizni ko'rgim keladi,
Yengingizdan tutib yurgim keladi,
Poyingizga boshim urgim keladi,
Eh, jadid ayollar, jadid ayollar!



Zebo MIRZO,
"Shuhrat" medali sohibi

Azizim,
Ne uchun maysa emasmiz,
Yellar o'pganida suyaklib o'tgan.
Ne uchun, ne uchun daraxt bo'lmadik,
Ildizi, shoxlari chirmashib ketgan.
Ariqlar bo'yida giyohdek o'ssak,
Suvlarda tushimiz eshilarimidi?
Adirlar ortida shamol bo'lsaydik,
Ko'klarda ruhimiz qo'shilarimidi?
Nechun mavjudmiz-u, nechun yo'qdaymiz?
Barmoqlar uchida nozik bir titroq.
Nafaslar qo'shilib turganda, nechun
Olovlar ichida jim kutib turmoq.
Nechun pichoqlarga tiralar ko'zim
Ko'kka suyanganday suyanolmayman.
Nechun qo'lingizda loladek uxlab,
Ko'ksingizda tongdek uyg'onolmayman...
Ne uchun hayotim bu qadar sahra,
Nechun yuragimda bu qadar zorlik,
Qarshimda shovullab oqar bir daryo,
Bir tomchi suv so'rab o'tinolmayman...
Azizim,
Ne uchun inson yaraldik,
Ko'nglimiz sig'masa yer-u samoga?
Oh, endi shu qadar muhabbat bilan
Biz qanday yashaymiz bu tor dunyoda?

Biz nechun yaraldik yolg'on dunyoda?
Azizim, ne uchun maysa emasmiz?



Mehribon ABDURAHMONOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

QIZCHA, QUYOSH VA YULDUZLAR HAQIDA QO'SHIQ

Tun.
Chigirtka chirillar tinmay,
Onda-sonda itlar huradi.
G'ayir sochi qop-qora qizcha
Baxt haqida tushlar ko'radi.


Tushlarini yoritadi oy,
Supra yulduz yasaydi kulcha.
Qo'riqlaydi Yetti qaroqchi
Qizchani to tong otgunicha.

Topshiradi tongga sog'-omon,
Quyosh chiqar mayin erkalab.
Yuzlarini yuvar shudringlar,
Qushlar kuylab berar etralab.

Kuni bilan o'ynar kun bilan,
Buzog'ining ortidan chopib,
Chap ko'ksiga yashirib qaytar,
Botayotgan quyoshni topib.

So'ng uxlaydi kunni quchoqlab,
Supra yulduz yasaydi kulcha.
Yana qo'rir Yetti qaroqchi
Qizchani to tong otgunicha.

Tonglar otar, musaffo, oppoq
Yog'dularga to'lar ertasi.
Asra doim, ona tabiat,
Ozod yurtning ozod erkasin.



Xosiyat RUSTAMOVA,
O'zbekiston va Ozarbayjon
Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Balki xotirangda qolgan... qolmagan,
Balki Sen uchun ham armon o'sha on.
O'sha kun nigohlar gapirolmagan –
So'zlardan qocholmay yuribman hamon.
Har kuni erinmay tong otar oppoq,
Har kuni tap tortmay kelaverar tun!
Har shox uyalmasdan yozganda yaproq –
Mening xayollarim tortadi mahzun.
Har lahza yodimga solar bahorni,
Har lahza yodimga tushar o'sha kuz.
Yillar kuraganda sochimdan qorni,
Sen mening dunyomda qolasan yolg'iz!
Ko'zimda u kunlar qoldi tip-tiniq,
U kunlar bo'lganmi? Bormidi? Bor... Chin!
She'rga aylanishga turibdi intiq –
Ko'zimdan to'kilgan har ulkan tomchi!
Balki... Xotirangda qolgan... Qolmagan...
Balki Sen uchun ham o'sha kun armon.
O'sha kun nigohlar gapirolmagan –
So'zlar bilan yashab yuribman hamon!



Shoira SHAMS,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Kelur savsan qadin tog' aylabon ul navbahor ichra,
Dilida ishq-u, ilkida tutib gul navbahor ichra.

Sahar afg'oni birla olam ahlin uyg'otib erdi,
Yana avji tarannum birla bulbul navbahor ichra.

Kirib gulshanga vasfin bitgali kim ishtiyoq aylar,
Yuz ochgay sahfadek nargis-u sunbul navbahor ichra.

Saboh alvonida husn-u jamolin orzu etgay,
Seningdek necha, ey ko'nglum, taxayyul navbahor ichra.

Bitarsan nomalar otiga Shoira nihon aylab,
Ki ishq asrori dilga bo'ldi maqbul navbahor ichra.




Nargiza ODINAYEVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Men o'zim tomonga qarayolmayman,
Yurak betlamaydi sen yoqlarga ham.
Tuya bo'ynidagi qo'ng'iroqdayman,
Yo'llarga to'kilib boryapman kam-kam.

Qushlar osmonidan takror o'toldi,
Sochlarim rayhonga aylanolmadi.
Bir ulkan ismlar kaftimda toldi,
Zamin izlarimni yodlayolmadi.

Og'riqlar – mo'jiza, sukut – katta sir,
Har zarram yurakka aylanib turdim.
Fasllar ranglarda takror kelgandir,
Men esa bir tushni bir marta ko'rdim.

Yomg'ir, shamollarda o'ynayveraman,
Tuya saholarga manzil soladi.
Muallaq lahzaman, nomsiz eraman,
Quyosh tomog'imda qotib qoladi.



Gulhayo ANOROVA,
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibi

Men jim kuzataman onam umrini,
Bir yodgorlik kabi turar mung'ayib.
Lavhiga qirtishlab bitilgan yoziq
Rangsiz fasllarda bo'ldilar g'oyib.

Men jim kuzataman onam umrini,
Uyqusi adashgan qushlarday behol.
Ko'zlari kirtaygan,
Rangi uniqqan
Gullardek iforin bilmas ehtimol.

Men onam umrini kuzataman jim...
Yomg'irga jom bo'lar chumoli ini.
Har oqshom bokira o'rmon qo'ynidan
Ko'zlaring izladi qanday afsunni?

Men jim kuzataman onam umrini,
Anhoday shovullar olomon besar.
Sening-chi, ko'ksingda urayotir bong
Inson anglashi man etilgan hislar.

Men jim kuzataman onam umrini,
Bolangman yupanchga jur'at etmagan.
Ro'moling chetidan sirg'algan g'arib
Sochlarining o'tmishdir qo'lim yetmagan.

Men jim kuzataman onam umrini...



“Dunyoda ikki qudratli kuch bor – biri
qilich, yana biri esa qalam. Ular o'rtasidagi
raqobat va kurash shiddatli. Lekin ulardan
ham qudratliroq yana bir kuch bor – bu
qo'lga qalam olgan ayoldir.”

Muhammad Ali JINNA



SIYRAT

“EGILGAN HAR NIHOLNI TURG‘AZIB QO‘YDIM...”

Bolaning o‘zi tusagan ko‘ngil dunyosi bo‘ladi. Unda oydan baland orzular, adoqsiz orzu-niyatlar kamalakraq gulbarq yozadi. Bolaligimda adabiyotga mehr, mutolaaga oshnolik qabimizga kitobning suratini muhrlagan...



qildim. Tahririyatga yo‘llagan xatimga qisqa muddatda javob olganimda mendan baxtiyor odam yo‘q edi. Xatni bag‘rimga bosaman. Yostig‘imning ostiga qo‘yib yotaman. Yaqin dugonalarning menga havasi kelardi. Men esa shoiraning she‘rlarini takrorlayverardim: *Go‘zal tuproq uzra quyildi oqshom, Kunduz olar dam,*

*Jo‘shqin mushoira etadi davom,
Do‘stim, kel sen ham!
Bunda uzoqdagi do‘st bo‘lar yaqin,
San‘at, mahoratning bayrami bunda,
Qo‘fiya, so‘z, misra bahslari qizg‘in.
Yuraklar davraga kiradi bunda...*

Men shoirani tasvirlagan davraning tinglovchisi bo‘lgim, u suhbatlarni uzoq eshitgim kelardi. 1982-yili tahririyat ostonasiga qadam bosib, xalqimizning sevimli shoiralari Oydin Hojiyeva, Qutlibeka Rahimboyeva bilan suhbatlashib qaytarkanman, uzun yo‘lak oxiridagi Zulfiyaxonim nomi yozilgan eshikka hadik va mehr bilan terilib, vujudimda buloqning suvidan to‘tgandek tiniqish va qoniqish his qildimki, bu hisni hal-hanuz unutolmayman.

*Salom, mening aziz dugonalaring,
Azizim, lo‘barim, chevarim qizlar!
Ey, toza qalblarning oshnolari,
Kuylarim ilhom, sevarim qizlar!*

Har oqshom bir she‘r dilga ko‘chib o‘tardi. Ko‘chganda ko‘ch-ko‘roni, hayajoni, titroqlari bilan manzil topardi. Sevimli ijodkorlarimiz bilan uchrashgan kunlarimiz – talabalikning odiy kunlarini bayramlarga aylantirib yuborardi. Jurnal bilan muloqot tahririyatga bog‘lab qo‘ygan damlar ne baxtki, kun kelib shu jamoada bir xodim bo‘lib ishlash nasib etdi.

Ardoqli shoiramiz Halima Xudoyberdiyeva bosh muharrirlik qilayotgan yillar edi. Bunda Zulfiyaxonim ulug‘lik gashtini surayotgan

bo‘lsa-da, tahririyatdagi anjumanlarga goh-goh qatnashib turardi. Uning tashrifi, kutib olish jarayonining o‘ziga biz uchun alohida bir saboq edi. Sipo kiyimi-yu, sipo qarashlarining o‘zidan-da o‘rganadigan sinoatlar borligi vujudingga ko‘chardi. Nigohlaridagi fikrning o‘zi-da dars berardi. Tahririyatga ilk bor xat yo‘llagandagi haya-jonlarimga yanada adoqsiz titroqlar qo‘shildi. Zulfiyaxonimning ayollik, onalik va insoniyliqi, mehr-u muhabbati, matonati salmog‘ini o‘lchagich mezon yo‘q edi dunyoda. U sabrning dengizini simirdi, kurashib yashamoq iqbolini neligini ko‘rsatdi. Irodasi, jasorati bilan o‘zbek ayoli timsoliga aylandi. O‘n yillik hayotining gavhar xotiralari bilan yashab, vafo va sadoqat kuychisi bo‘lib ko‘ngillardan joy oldi:

*Hijroning qalbimda, sozning qo‘limda,
Hayotni kuylayman – chekinar alam,
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotdan sen ham!
Ustoz Mirtemir “Zulfiya she‘riyatimizning ham, madaniyatimizning ham, yurtimizning ham iftixori! Ulug‘ Vatan faxri!” deya yozganida shoirani toleyini ko‘ra olgan edi.*

Xalqning ardoqli shoirasi aziz umrining 80 yillik shodiyonasida o‘ziga xos saodatti so‘zini aytdi. Qog‘ozga o‘ynaksiz qadalgan ko‘zlarida shukronalik nuri zo‘hir edi. Buning siri cheksiz yorug‘ ko‘ngil kengliklarining qaytimi deb o‘ylayman. “Men o‘zbekning Zulfiyasiman”, deya she‘r bilan so‘zlarini

tugatganda butun zalning tik turib, uzoq olqovi shoirani so‘zining ming chandon haqligiga she‘rparast xalqining odil bahosi edi. Shoiraning ikkinchi umri ham shunday ardoqda kechmoqda.

Zulfiyaxonim nomidagi Davlat mukofotining ta‘sis etilishi iqtidorli qizlarni g‘oyat ruhlantirib, hayotda o‘z o‘rnini topishida betakror maktab vazifasini o‘tayotir. Shu bilan birga jamiyat hayotida faol kadrlar – yetakchi qizlarning shakllanishiga mustahkam zamin hozirlamoqda. U muhtarama zot sharafiga haykal o‘rnatilishi mamlakatimizda Ayolga, uning jasorati, sabr-u qanoati, mehnati, vafosi va hayosiga berilgan beqiyos ehtirom bo‘ldi.

Bugun shoiraning izdoshlari saftortmoqda. Havas bilan minglab qizlar Zulfiyaxonim hayoti va ijodidan g‘oyibona saboq oldi. Qad rostlab, qaddini tikladi. O‘z aytar so‘ziga ega bo‘ldi. Izlanib, o‘rganib niyatni ulug‘ qildi va shu yurtga munosib farzandlar bo‘lib kamol topdi.

She‘rni, shoirani sog‘inib yurtimizga bahor mo‘ralaydi. Mana, necha yildirki, Zulfiya haykali qoshida bahorning birinchi kunini kutib olamiz. Bunda betakror shoiramizning o‘zi o‘qigan she‘rlari bilan muxlislarini kutib olayotgandek tuyulaveradi. Qulog‘imga uning bir satri quyilib qolgan:

Egilgan har niholni turg‘azib qo‘ydim...

Dilfuza SHOMALIKOVA

OUTLOW

YUZ BILAN YUZLASHGAN “SAODAT”

Ilk ayollar jurnali “The Ladies’ Mercury” dunyo yuzini ko‘rganiga qariyb uch yarim asrcha bo‘ldi. Bu jurnal Angliyada noshir va jurnalist Jon Delton tomonidan chop etilgan bo‘lib, uning sahifalaridan sevgi va sadoqat hikoyalari, odob-axloq mavzusidagi maqolalar, ayollar liboslariga oid tavsiyalar hamda xotin-qizlar bilan bog‘liq ajoyib xandalar joy olgan edi. Ammo 1886-yilda matbuotga kirib kelgan Amerikaning “Cosmopolitan” jurnali, garchi keyinchalik adabiyotga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, to bugungi kunga qadar eng ko‘p obunachiga ega ayollar nashri deb e‘tirof etiladi.



O‘zbek xotin-qizlarining ma‘naviyat bo‘sonida ko‘z ochgan “Saodat” ham o‘z nufuzini baland tutib kelayotgan onaxon jurnaldir. Ayni kunlarda uning ijodiy jamoasi jurnalning yuz yillik to‘yiga tayyorgarlik ishlarini boshlab yuborgan.

“Saodat” yurtimiz xotin-qizlarining omma-bop, ijtimoiy-siyosiy, badiiy-bezakli jurnali bo‘lib, o‘zbekona qadriyatlarimiz targ‘ibotchisi, millat ayollarini ijtimoiy faollikka chorlaguvchi, shuning bilan birga, turmush tashvishlarida ularga eng yaqin maslahatgo‘y vazifasini o‘taguvchi suyuqlik nashrdir. Jurnalning ilk soni 1925-yilda “Yangi yo‘l” nomi bilan o‘quvchilar qo‘liga yetib borgan. Uning ilk muharriri etib matbuotchi bo‘lmasa-da, uzoq yillar mas‘ul lavozimlarda ishlagan, o‘z davrining faol ayoli Tojixon Shodiyeva tayinlangan.

Ma‘lum ijtimoiy-siyosiy sabablar bilan jurnalning nomi bir necha bor o‘zgartirilgan. Jumladan, tashkil bo‘lganiga o‘n yil to‘lib, “Yorqin turmush”, yana biroz vaqt o‘tib, “Yorqin hayot” deya nomlanadi va tez orada o‘zbek ayollari hayotining oynasiga aylanadi. Ammo ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi iqtisodiy inqirozlar sabab jurnal bir muddat nashr etilmaydi. To‘qqiz yillik tanaffusdan keyin 1950-yilga kelib nashr “O‘zbekiston xotin-qizlari” jurnali nomi ostida yana muharrirlarga taqdim etila boshlandi. Jurnalning “Saodat” deb nomlanishi esa alohida bir tarix.

O‘zbekistonning ilk jurnalist ayollaridan biri – Saodat Shamsiyeva o‘sha paytdagi respublikaning birinchi rahbari Akmal Ikromov taklifi bilan ham Markaziy Komitetning bosmaxona ishlari bo‘limida, ham jurnalda muharrir sifatida faoliyat boshlaydi. To‘satdan jurnalning nomini o‘zgartirish haqida gap chiqadi va bir qancha yangi nomlar muhokamaga qo‘yiladi. Fayzulla Xo‘jayev jurnalni “Saodat” deb nomlash taklifini beradi. Biroq Akmal Ikromov bu taklifni yosh muharrir

nomiga ig‘vo chiqmasligi uchun rad etadi. “Saodat” jurnal uchun uzukka ko‘z qo‘ygandek eng ma‘qul nom ekani esa ko‘pchilik hukumat a‘zolarining yodida muhrlanib qoladi. Va nihoyat 1966-yildan boshlab O‘zbekiston xotin-qizlar jurnali shakli-shamoyiliga va o‘zbek xotin-qizlari, opa-singillarining qalb kechinmalariga munosib tarzda “Saodat” deb ataldi.

Bu o‘ziga xos, nafasatli nashrga Tojixon ayadan keyin Sobira Xoldorova, Xosiyat Tillaxonova, Saodat Shamsiyeva, Fotima Niyozova, Iqbol Akbarov‘jayeva, Oydin (M.Sobirova), Zulfiya Isroilova, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Feruza Jalilova muharrirlik qildi.

“Men shu muborak tahririyatda 42 yil ishladim, – deydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Qutlibeka Rahimboyeva. – To‘rt avlod-Zulfiyaxonim, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Munavvara Usmonova rahbarlik qilgan adabiy davrda undim, o‘sdim. Bu jurnal menga o‘xshagan ne-ne shoiralarga saodat eshigi bo‘ldi. Ammo shu kunlarga yetmoq ham oson kechmagan. O‘n beshi zulmatga do‘ngan achchiq xotiralarning hilviragan sahifalarida qora yozuqlar ham bor. “Saodat”ga muharrirlik qilgan ilg‘or fikrli ayollarning ba‘zilari qatag‘onga uchrab, uzoq yillar Sibirga surgun qilingan. Jumladan, Tojixon aya yigirma yil, Sobira Xoldorova o‘n uch yil Vatandan uzoqda yashagan, og‘ir qiynoqlarga solingan...”

Bugun “Saodat”imizning adadi 70–80-yillardagiday katta bo‘lmasa-da, biroq muharrirlar auditoriyasi tor emas. Ular jurnalimizni elektron shaklda o‘qishadi, chiqayotgan maqolalarga munosabat bildirishadi. “Saodat” nuroniyoshga yetib ham zamon bilan hamnafas yashayapti, taraqqiyot bilan birma-bir qadam tashlayapti.

E‘tibordan chetda qolayotgan mavzu yo‘q. Millat ayolining turmush tarzi, bola tarbiyasi, madaniy meros, milliy qadriyatlar, adabiyot va san‘at olami, dunyo miqosida tanilayotgan qizlar hayotidan lavhalar, pazandalik sirlariga oid maslahatlar va hokazo... Xullas, “bunda tole har narsadan mo‘l...”

Qutlibeka Rahimboyevaning aytganicha bor, davlat rahbarining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan jurnal tahririyati faoliyatini tubdan takomillashtirish, ularning elektron shaklini yaratish, samaradorligini oshirish borasida ham bir qator chora-tadbirlar belgilab olinib, jurnalning yangi qiyofasi yaratildi. Bugunning voqealariga yangicha yondashuv, tezkor munosabat va dizaynga e‘tibor qaratildi.

“Ayol va siyosat”, “Mustaqil yurt tayanchlari”, “Bir voqea tahlili”, “Jahonga mashhur ayollar”, “Jannatim onam”, “Saodatli yillarim”, “Qizlar daftaridan”, “Dunyoga yuldon bergan ayollar”, “Har bir oila – tadbirkor”, “O‘lisdagi yaqinlarimiz”, “Qaynonalar maktabi – hayot ibrati” kabi yangidan yangi ruknlar yuz ochdi. Yana bir gapni aytmasa bo‘lmaydi. “Saodat”da mehr-oqibatning bardavom an‘anasi bor. Jamoaning biror xodimi ko‘zdan uzoq ketsa-da, ko‘ngildan nari bo‘lmaydi. Qondosh egachi-singil kabi to‘y-u tashvishida bir-biriga kamarbasta, yaxshi-yomonida hamnafas. Bitta nonni yetti bo‘lib yemasa, yegani ichiga tushmaydi.

Asrlik umr bir jurnal uchun – buyuk davr. “Saodat” shunday ulug‘likka yetdi, muhtasham yuz yillikning barakotini ko‘rdi. Qog‘ozlar qatida taqdir tar suvratini, kechinmalar tasvirini chizdi. Ayoli bor o‘zbeki xonadonlarning hammasiga muhib bir kuy kabi sizib kirdi. Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston xotin-qizlari jamiyatining hur damini tasdiqlovchi muhim hujjatga aylandi. “SAODAT”ning tabarruk bayramlari mehri-jahon onalar, dildor opa-singillar, oysuluv qizlarimizga qutlug‘ bo‘lsin!

Muhayyo RUSTAMOVA

JAMIYAT

Oila ming yillardan buyon kishilik jamiyatining asosi va inson hayotining mazmunini tashkil qilib kelmoqda. Odam butun umr oila muhitida yashaydi. Muqaddas kitoblarda ham, mamlakatimiz Bosh Qomusida ham, milliy qadriyatlarimizda ham oilani asrab-avaylash masalasiga alohida e‘tibor qaratilgani bejiz emas.



QO‘RG‘ON MUSTAHKAM BO‘LSIN

Biroq globallashuv davrida turfa jamiyat va madaniyatlarining o‘zaro ta‘sirashuvi natijasida ming yillik qadriyatlar ham transformatsiyaga uchrarmoqda. Hozirgi shiddatli zamon ko‘plab an‘anaviy tushunchalar qatori oilani ham jiddiy sinovdan o‘tkazyapti. Yaqin vaqtlargacha asosan G‘arb jamiyatlariga xos deb hisoblangan nikoh va oilaviy hayotga bepisand qarash, shaxsiy manfaatni o‘ladan ustun qo‘yish kabi holatlar, taassufki, asta-sekin bizning kundalik hayotimizda ham bo‘y ko‘rsatmoqda.

Albatta, ushbu holat allaqachon ko‘pchilikni bezovta qilyapti. Ko‘pchilik oilani asrash haqida bong uryapti, bu muammoga bag‘ishlangan anjumanlar uyushtirilib, mahallalarda targ‘ibot-tashvishotlar o‘tkazyapti, nizolashib qolgan er-xotinlar yarashtirilyapti. Xullas, imkon qadar choralar ko‘rilyapti. Lekin shuncha sa‘y-harakatlarga qaramay, nega ahvol kun sayin yomonlashib bormoqda? Ochig‘i, bunga javob topish oson emas.

Yurtimizda ajrimlar ko‘payishining asosiy sabablaridan biri yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, erta nikohlar bilan bog‘liq. Chindan ham, xalqimiz – bolajon xalq, doimo farzandlarini o‘ylab, ularning kamolini ko‘rish orzusi bilan yashaydi. Biroq aksar hollarda ota-onalar o‘z bolasining fikri bilan hisoblashish zarurligini unutib qo‘yadi. Uning nimani kiyishidan tortib, kelajakda qanday kasb tanlashini ham o‘zlari hal qilishga intiladi. Farzandning individual xususiyatlari, uning o‘y-kechinmalari va xohishlari bilan qiziqmaydi.

Eng achinarlisi, o‘g‘il-qizlar voyaga yetgach, kim bilan yashishini ham kattalar belgilab beradi. Hali biron ishning boshini tutib jamiyatda o‘z o‘rnini topib ulgurmagani, bir-birini yaxshi bilmaydigan yoshlar barvaqt nikohdan o‘tkaziladi. Shu tariqa ularning aksariyati orzu-havaslar qurboniga aylanadi. Tez orada qo‘r kelin-kuyovning hayotida, o‘zaro munosabatlarida muammolar yuzaga chiqqa boshlaydi. Oqibatda to‘laqonli oilaviy hayotga, uning o‘tkinchi qiyinchiliklariga tayyor bo‘lmagan yoshlar “qarashlari to‘g‘ri kelmagani”ni bahona qilib ajrashishga qaror qiladi.

Farzand uchun doimiy g‘amxo‘rlik qilish yaxshi, albatta. Lekin mehrda ham me‘yor bo‘lgani ma‘qul. Go‘daklar erta yoshidan mustaqil hayotga tayyorlab borilmasa, har gal uning nomidan ota-onasi qaror qabul qilaversa, vaqti kelib u hatto, o‘z juftini tanlashda ham mas‘uliyatni zimmasiga olishga jur‘ati yetmasligi mumkin. Bugungi kunda “Men oila qurishga tayyormanmi? Oilam mustahkam bo‘lishi uchun nimalar qilishim kerak?” degan savollarni xayoli-

ga ham keltirmasdan turmush qurayotgan yigit-qizlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Taassufki, ota-ona va yaqinlar qistovi bilan oila atalmish qo‘rg‘onga tayyorgariksiz g‘isht qo‘ygan bunday yoshlarning aksariyati muammolar girdobiga tushib qolmoqda.

Shu o‘rinda jamiyatimizda shakllangan yana bir illat xususida ham to‘xtalmasak bo‘lmaydi. Gap shundaki, oliy o‘quv yurtini tamomlab, endigina ish boshlagan yoki turmush qurish yoshiga yetgan yigit-qizlarga nisbatan kattalarning bosimi kuchayib ketadi. “Tengqurlaring allaqachon ikki bolali bo‘ldi, sen esa haligacha sudralib yuribsan” deb ularga dashnom berish oddiy hol sanaladi. Go‘yoki millat taqdiri ularning to‘yiga bog‘liqdek... Bunday tinimsiz ta‘na-malomatlardan bezor bo‘lgan ayrim yoshlar o‘zlari umuman tanimaydigan, bilmaydigan yigit yoki qiz bilan turmush qurishga rozilik berib yuborishadi. Shu ham ko‘pincha ajrimlarga sabab bo‘lmoqda. Buning oldini olish uchun avvalo odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish zarur. Kamolga yetgan yoshlarni umrining eng mas‘uliyatli pallasida ortiqcha savollar bilan qiynash o‘rniga, ularning qalbiga yo‘l topib, fikrini eshitish muhimroq. Shoyad ana shunda ajrimlar va turmushdan alamzada yoshlar soni kamaysa.

Qolaversa, yoshlarning o‘zi ham bunday mas‘uliyatli pallada dadil va qat‘iyatli bo‘lishi, ko‘ngil amri va sog‘lom aql bilan ish tutishi kerak. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nikoh qurish arafasidagi yoshlarga qarata aytgan quyidagi so‘zlari ham shundan dalolat beradi: “Men aziz yigit-qizlarimizga murojaat qilib aytmoqchiman: turmush qurishga, oilaga, farzand taqdiriga nihoyatda chuqur mas‘uliyat bilan qarang. Bu masalaga yuzak yondashib, ham o‘zingiz, ham o‘zga bir inson hayotini xavf ostiga qo‘ymang”.

Oila xalqlar hayotining davomiyligini ta‘minlaydigan muqaddas maskan hisoblanadi. Oilaga etiborsizlik har qanday jamiyat uchun ham halokatli oqibatlariga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun oilaviy ajrimlarning oldini olish, bunga sabab bo‘layotgan illatlarni bartaraf etish barchamizning umumiy vazifamiz hisoblanadi. Baxtli oila – farovon jamiyat demak. Nikoh rishtasi muqaddas sanaladi. Chunki unda muhabbat, sadoqat va mehr-oqibat mujassam. Oila esa jamiyatning mustahkam qo‘rg‘onidir. Mashhur qo‘shiqda aytilganidek, “Uyida baxti borlar – har yerda baxtiyordir”.

Avazbek SHERMATOV,
Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar
instituti ilmiy xodimi



“Mening istiqboli porloq erkaklarga hurmatim qanchalar yuqori bo‘lsa, o‘tmishi go‘zal ayollarga ehtiromim ham shu qadar balanddir.

Oskar UAYLD



Boshlanishi 1-sahifada.

Bo'ldi ishing arzi namoz aylamak,
Sheva manga arzi niyoz aylamak.
Sanga samar berdi namoz-u riyo,
Bizga bu bar berdi niyoz-u fano".

"Niyoz-u fano" deganda hech qanday manfaatni o'ylamay, hamma narsani unutib, dunyodan ham kechib, qalbning tub-tubidan Alloh vaslini yalinib-yolvorib so'rash tushuniladi. Ibrohim Adham esa Xudoga ko'proq yoqish uchun har qadamda ikki raketdan namoz o'qidi. Xudoga intilishning xuddi shu ikki bir-biriga zid yo'lini qiyoslab, Hazrat Ali bir ajib hikmat aytgan va uni Navoiy o'zbek tiliga qoyilmaqom o'g'irgan:
Toat ko'pidin ma'rifat ozi yaxshi.



Bu yerda "ma'rifat" so'zini "ilm-ma'rifat" ma'nosida emas, "tasavvuf" tariqasida tushunish kerak. Tasavvuf esa Alloh taolaga oshiqlik, uning vaslini tilashni anglatadi. Demak, ko'p toat-ibodat qilgandan Xudoni ko'proq sevish afzalroq ekan.

Bu yerda shoir riyo bilan, ya'ni ko'z-ko'z qilib o'n to'rt yil har qadamda ikki raketdan namoz o'qigandan ko'ra chin dildan Allohga niyoz qilishning ustunligini ta'kidlaydi. Shu tariqa Robia al-Adaviyaning bu sidiqi Ibrohim Adham ibodatidan ustun kelgani ayon qilingan.

Xo'sh, nega ayol avliyoning yo'li erkak avliyoning yo'lidan ustun ko'rsatildi? Savolga javobni yana Navoiyning o'zidan - uning bir qit'asidan topamiz. Hazrat Ali nasriy hikmatning o'zbekcha she'riy tarjimasida asosida bitilgan bu satrlarda so'zni kim (erkakmi yoki ayol) aytayotganiga emas, balki nima deyaotganiga e'tibor berish lozimligi uqtililadi:

Chun g'araz so'z din erur ma'ni anga,
Noqli o'lsa xoh xotun, xoh er.

So'zchi holin boqma, boq so'z holini,
Ko'rma kim der oni, ko'rgilkim, ne der.

Demak, Allohga ibodatda bandaning jinsiga emas, uning a'moliga qaraladi, deyilmoqchi.

"TENGLIQLI" BOSH QAHRAMONLAR

"Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ayi sayyor" dostonlaridagi ikki bosh qahramondan biri, ya'ni Shirin, Layli va Dilorom - ayol.

TEMURIYLAR DAVRI JADIDI

Shirinning ilm-ma'rifati, aql-farosati yuk-sak darajada ekaniga amin bo'lamiz. Dostonning 35-bobi. Farhodning Mehinbonu saroyida mehmon bo'lishi tasviri. Ziyofatda Shirinning har biri bir fan sohasida kiroiy kamolot kasb etgan o'n kanizi ham qatnashadi.

Bu majlis ichra hozir o'n dilorom,
Bori ham sarvqomat, ham gulandom.
Bo'lub Shirin bisotining nadimi,
Alardin xush Mehinbonu harimi.
Kelib har qaysi bir fazl ichra mohir,
Mahorat shevasi har birda zohir.
Biri ash'or bahri ichra g'avvos,
Biri advor davri ichra raqqos.
Biri mantiq rusumida raqamkash,
Biri hay'at ruqumig'a qalamkash.
Birinining shevasi ilmi haqqoyiq,
Balog'atda biri aytib daqqoyiq.
Biri tarixda so'z aylab fasona,
Biri hikmat fani ichra yagona.
Hisob ichra birining zehni borib
Muammoda birisi ot chiqorib.
Bu fanlarda bular bir-birdin ahsan,
Yuz ul fanliq aro har qaysi yakfan.
Dilorom-u Diloru-yu Diloso,
Gulandom-u Sumanbo'y-u Sumanso.
Parichehr-u Parizod-u Parivash,
Paripaykar - zihni o'n ismi dilkash.



Bu parcha tahlilida bir muhim nuqtaga alohida diqqat qaratishimiz zarur. Ya'ni, o'n qizning she'rshunoslik, musiqa nazariyasi, mantiq, astronomiya, tasavvuf, balog'at (poetika), tarix, falsafa, matematika, muammo (she'rda yashiringan so'zlarni topish) bo'yicha yetuk ilmga ega bo'lganligiga! Buning zamirida nima orzu yotibdi?

Savolga javobni oradan besh asr o'tib, jadidlar harakatida topish mumkin. Ular madrasalarda tabiiy fanlar o'qitilmasligi, bu jihatdan ilg'or Yevropa mamlakatlaridagi ilm-ma'rifat darajasidan juda ortda qolib ketganimiz masalasini ko'tarib, yangi tartibdagi maktablar ochadi, dunyoviy fanlardan ham ta'lim berila boshlaydi. Diqqat qaratish kerak bo'lgan jihat shuki, sho'ro zamoniga qadar xotin-qizlar uylarda savod chiqargan, qizlar maktablari

bo'lmagan. Qizlar madrasasi haqida-ku xayol qilishning o'zi imkonsiz edi.

Qarang, Navoiy o'z davrida o'n qizning o'n fanda mohirligini yozyapti. Bu tahlillar asosida hech ikkilanmasdan "Navoiy temuriylar davri jadidi edi", deya olamiz.

VA'DAGA VAFO

Farhod tog'ga suv chiqardi. Shuning sharafiga saroyda shohona mehmon qilindi. Hammasi yaxshi edi. Shirin ko'nglida ham Farhodga muhabbat jo'sh urgan edi. Shunday bir yaxshi kunda Shirinning ta'rif Eron shohi Xusrav Parvezga yetib boradi. Xusrav bu masalada yaqin do'sti, donishmand Buzurg Umiddan maslahat so'raydi. U sovchi yuborish fikrini aytar ekan, Mehinbonuni "kordon", ya'ni "ishning ko'zini biluvchi", "dono", Shirin ("paripaykar")ni esa "bisyordon", ya'ni "ko'p narsani biluvchi" deb eshitganini aytadi:

Eshitmishmenki, Bonu kordondur,
Pari paykar dog'i bisyordondur.

Sho'irning bu satrlarida ham ayollarning aqlli va ilm-ma'rifatlari ekanini qayd etish bor.

Mehinbonu sovchilarga nima deb javob berishni bilmay boshi qotadi. "Xo'p" desa, Farhod nima bo'ladi, "yo'q" desa, Eron shohi uni va mamlakatini tinch qo'yadimi? Sovchilarni maslahatlashishini aytib jo'natadi. Oxiri Shirinning o'zini ham bu mashmashadan xabardor qiladi. Kutilmagan va gapdan uning fig'oni falakka chiqib:

Boshimg'a tig'i g'am sursang, ne bo'lg'ay,
Bu so'z deguncha o'tlursang, ne bo'lg'ay?!

...Manga Farhod ishq tuhmali bas, - deydi.

Menga ne ishq-u, ne oshiq havasdur,
Agar men odam o'lsam, ushbu basdur!

"Ushbu" deganda Farhod bilan bog'liq ishq-muhabbati marjarolari ko'zda tutilgan. Bunda Shirinning odobi namoyon bo'ladi.

Farhodni Xusrav hiyla bilan halok etadi. Shirin uning dardida kuyib, bir necha karra o'zini o'ldirishga urinadi. Har gal odamlar bunga xalaqit qiladi. Chunki Mehinbonu unga kecha-kunduz qorovullar tayinlagan edi.

Oxiri Mehinbonu Xusrav bilan yarashadi. Qamal qilingan shahar darvozalari ochiladi. Shirinni Eron shohiga berishga rozilik bildiriladi. Shirin tog'da Farhod bunyod etgan qasr ziyoratiga izn so'raydi. Xusrav noiloljikkidan rozilik beradi. Shirin ot ustidagi shohona kajavada tog' sari yo'l oiganida Xusrav lashkarining bari saf tortadi. Ular orasida shahzoda Sheruya ham bor edi. Shirinning husnini ko'riboq uning ko'ngliga ishq o'ti tushadi. Oromini yo'qotadi. O'ylab-o'ylab, otasini o'ldirish rejasini tuzadi. Xusravning zulmi haddidan oshgani uchun a'yonlari shahzoda tarafga o'tadi. Otani o'ldirib, taxtiga o'tiradi-da, Shiringa sovchi yuboradi.

Shirin esa oqila, vafodor qiz. Ichida masalani puxta hal qilib oladi:

Ani ko'rmakdin o'lmak yaxshiroqdur!

Bu Shirinninggina qo'lidan keladigan mardlik va qat'iyat edi.


CHARBZABONLIG'

Navoiy qo'llagan bu so'z lug'atda "shirin-zabonlik", "tilyog'lamalik" tarzida izohlanadi. Shirin donolik qiladi. Navoiy tili bilan aytganda, "charbzabonlig'" bilan Sheruyaga shart qo'yadi: "Avval Farhodning hurmatini bajo keltirib, azasini tutay, keyin sening hukmi farmoningda bo'lay, ko'nmasang, meni tirik ko'rmasang", deydi. Sheruya noiloj ko'nadi.

Shopur yo'l boshchiligidan tog'dan Farhod jasadini topishadi-da, shohona kajavaga solib, o'zi bunyod etgan qasrga qo'yishadi. Shirin Mehinbonudan ruxsat so'rab, Farhod jasadini bilan vidolashmoqchi ekanini bildiradi. "Odamlar xalaqit qilmasin", deb ham iltimos qiladi. Qasrga kirib, eshikni ichkaridan qulflaydi-da, o'lik yori bag'aliga kirib, jon beradi.

MAKTABDOSHLAR

"Layli va Majnun"ning 11-bobida tasvirlanishicha, Qays, ya'ni Majnun Laylining otasi qizi uchun bunyod etgan maktabga o'qishga berishadi. U o'qishni boshlagan kunlari Layli uyida betob yotgan, davolanayotgan edi. Tuzalib, o'qishga kelgan kuni uni ko'rgan mahzun Majnun ko'nglida ishq olovlandi.



Bizni qiziqtirgan masala shundaki, Navoiy bu yerda, birinchidan, qizi uchun maktab qurdirgan otani, ikkinchidan, maktabda o'g'il bolalar bilan qizlarga birga ta'lim berilayotganini yozyapti. Amalda esa biz XX asrga kelibgina ming mashaqqat bilan o'g'il-qizlar birga ta'lim oladigan maktablarga erishdik.

ODAM TINMAY MASHQ QILSA, YUKSAK MAHORATGA ERISHIB BO'LADI

Bu gapni har kim ayta olmaydi. Shunga ishongan, shuni o'zida sinab ko'rib, samara topgan kishigina bu qadar dadillik bilan shunday deya oladi.

Dilorom o'zida shunday kuch topdi. Nega? U Bahrom shohning suyuqli yori edi, ovga uni birga olib chiqqan, podshoh sarxush edi. Diloromga maqtangisi, ovchilik mahoratini ko'rsatib qo'ygisi, undan olqishlar eshitgisi keldi. "Kiyik uchrasa, qanday qilib o'tay?" deb so'radi undan. Dilorom: "Avval shunday bir o'q otingki, u uchib ketayotgan kiyikning ikki qo'lini bir yo'la teshib o'tib, uni to'xtatsin. Keyin yana bir o'q otingki, bo'ynini teshib o'tib, uni bo'g'izlasin. Chunki: "Bo'ynidan bo'g'izlangan hayvon go'shti halol bo'ladi", deyishadi", deydi.

Kiyik paydo bo'lishi bilan Bahrom yorining bu shartini haddi a'losida bajaradi va yoridan maqtoq kutib: "Qalay?" deydi. Dilorom esa "Odam tinmay mashq qilsa, bunday yuksak mahoratga erishib bo'ladi", deydi bamaylaxotirgina.

Shoh jahil ustida yorini o'limga hukm qiladi. Ammo a'yonlari uni cho'l-u biyobonda sochini bo'yniga o'rab, tashlab kelishadi. Doston voqeasi bo'yicha Dilorom tirik qoladi, yillar o'tib, er-u xotin bir-biri bilan topishadi ham.

Bizni bu yerda qiziqtirgan jihat boshqa - tinmay mashq qilish masalasi. Diloromning o'zi ham o'ta mahoratli jangchi edi. Bu yuksak darajaga esa u tinimsiz mashq bilan erishgan edi, albatta. Tabiiyki, shoir iste'dod bobida ayollar erkaklardan aslo qolishmasligini ko'rsatgan. Zimdan esa sodalik xotin-qizlar uchun ham kasb bo'lishi mumkinligini targ'ib qilgan. Bahrom aynan Diloromning changchilik mahorati sharofati bilan yorini topadi.

TEMURIYLAR DAVRI JADIDI

"Jadid" so'zi "yangi" degani. Buni bugun bilmaydigan kishi kam topilsa kerak. Hamma zamonda ham ilg'or kishilar yangiliksiz olg'a intilib bo'lmagani teran anglagan. Navoiy esa bu jihatdan ilg'orlarning ilg'ori edi.

Axir, xalqona aytganda, "eski tos, eski hammom" bilan jamiyat qayergacha bora oladi? Asr-asrlar mobaynida ham jahon tamaddunidan batamom uzilgan holda yashab kelayotgan xalqlar borligini tasavvur qilish uchun misol qidirib, uzoq-uzoqlarga borishning hech ham keragi yo'q: shundoq O'zbekistonimiz janubiy chegarasida oqib o'tayotgan Amudaryoning chap qirg'og'iga o'tib, qo'shni va qondosh xalqning yashash ahvolini bir ko'rgan odam bu fikrimizga darhol qo'shiladi-qoladi.

Buyuk Navoiyning sabog'i saboq: taraqqiyotga faqat va faqat yuksak darajadagi ilm-ma'rifat bilangina erishiladi.

Murod HOSHIMOV

JAHON AYVONIDA

MAKRON TINCHLIK SHARTNOMASIGA QARSHI CHIQDI

Fransiya prezidentining ta'kidlashicha, tinchlik "hech qanday narx evaziga va Rossiya tazyiqi ostida o'rnatilishi mumkin emas, shuningdek, osoyishtalik Ukrainaning taslim bo'lishi bilan ham sodir bo'lmaydi".



U Yevropa qo'shinlarini Ukraina hududiga joylashtirish taklifi ilgari surdi.

Kelgusi hafta Fransiya "Ukrainada kelajakdagi tinchlikni kafolatlashga" tayyor bo'lgan mamlakatlarning harbiy qo'mondonlarini to'playdi.

BOSH SHIFOKOR BIR MILLIARD RUBL O'G'IRLAB, QOCHIB KETDI

Hozirda uni mamlakat Ichki ishlar vazirligi qidirmoqda. Tatyana Surovseva Sankt-Peterburgdagi 20-sonli shifoxona rahbari bo'lgan.

U hamkasblari bilan birgalikda hashamatli ko'chmas mulklar va Maldiv orollariga sayohat yo'llanmalarini xarid qilgan. Pul o'g'irlangani 2024-yilda o'tkazilgan keng ko'lamli tintuvtlar paytida ma'lum bo'ldi.



O'sha paytda Rosfinmonitoring tibbiyot xodimlarining "Moskva-Siti"dagi kvartiralarini va qimmatbaho mashinalarini borligiga e'tibor qaratgan. Shuningdek, yiliga bir necha million rubl maosh (taxminan 141 mlrd so'm) yozilgan soxta xodimlarni ham ishga qabul qilib, barcha mablag'larni shifoxona rahbariyati o'zaro taqsimlab olgan.

2020-yil Surovseva "Sankt-Peterburg aholisi farovonligi yo'lidagi fidokorona mehnati uchun" nominatsiyasida "Oltin sher" mukofotiga sazovor bo'lgan edi.

TURAR-JOY BINOLARIGA BOMBA TASHLANDI

"Ryonxap" agentligining xabar berishicha, Janubiy Koreya harbiy-havo kuchlarining qiruvchi samolyoti AQSH bilan hamkorlikdagi mashg'ulotlar pay-



tida Pxochxon shahridagi poligonda tashqarida sakkizta MK-82 aviabombasini tasodifan tashlab yuborgan.

Hodisa oqibatida tinch aholiga zarar yetgan, to'rt kishi jiddiy tan jarohati olgan. Turar-joy binolari, shu jumladan, ibodatxona ham shikastlangan.

QARIYALARGA G'AMXO'RLIK QILUVCHI ROBOT YARATILDI

Yaponiyalik ishlab chiqaruvchilar keksalar uchun turli darajadagi parvarish vazifalarini bajara oluvchi robotni taqdim etdi.

150 kilogrammli gumanoid robot bemor-



larning tagliklarni almashtirish, yotoq yarasining oldini olish uchun ularni ag'darib turish, ularga o'tirishga yordam berish, paypoq kiydirish, tuxum qovurish, kiyimlarni taxlash va boshqa maishiy yumushlarni bajaradi.

Turkiya ham shunday robotlarni yo'lga qo'yishni rejalashtirmoqda. Chunki "temir odamlar" ham arzon, ham ishonchli ekanligi ta'kidlangan.

SAYLOVLAR YASHIRIN MUHOKAMA QILINDI



Politico nashri ma'lumotlariga ko'ra, muzokaralar Yuliy Timoshenko va Petro Poroshenkoning yaqinlari bilan bo'lib o'tgan. Uchrashuvda muddatidan oldin o'tkazilishi kutilayotgan prezidentlik saylovlari masalasi ko'rib chiqilgan.

Trampning yordamchilari Zelenskiy bu saylovlarda mag'lubiyatga uchraydi deb hisoblashmoqda.

Ukrainada prezidentlik saylovi 2024-yilda o'tkazilishi kerak edi, ammo harbiy

holat tufayli faqat jarayon bekor qilingan. Zelenskiy maqtab NATOga a'zolik evaziga lavozimini tark etishini ma'lum qilgan.

"YEVROPA RAHBARLARI UKRAINADA ABADIY URUSH BO'LISHINI ISTAYDI"



Amerikalik milliarder, AQShning Davlat boshqaruvi samaradorligi departamenti boshlig'i va tadbirkor Ilon Mask Yevropa rahbarlari Ukrainada "abadiy urush" bo'lishini xohlayotganini ta'kidladi.

"Ular abadiy urush bo'lishini istaydi. Yana qancha ota-ona o'g'illaridan ayriladi? Yana qancha bola otasiz qoladi? Ularning tasavvuricha, urush hech qachon tugamaydi", deya izoh yozdi Mask X tarmog'idagi foydalanuvchilardan birining postiga.

Ushbu postda Daniya bosh vaziri Mette Frederiksenning "Ukrainadagi tinchlik davom etayotgan urushdan ko'ra xavfliroq" degan so'zlari keltirilgandi.



MILLAT FIDOYLARI

“MEN AYOL ZOTIDA BIR JAHON KO‘RDIM...”

Xalqimiz azal-azaldan ayolga ehtiromni kelajakka e'tibor sanab, bu ezgu a'molni hamisha baland tutib, yuksak qadriyat sifatida e'zozlab keladi. Zotan, millatning buyukligi ilm-ma'rifatli ayollarga har jihatdan bog'liq. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: “Bir haqiqat ayonki, har qanday xalqning ma'naviy darajasini, avvalo, shu yurt ayollarining ma'naviy saviyasi belgilaydi”, deya ta'kidlaganlari bejiz emas.

Xotin-qizlarning ma'naviy saviyasi borasida taraqqiyparvar ziyolilar – jadid bobolarimiz ko'p va xo'b qayg'urishib, Turkiston kelajagini bevosita ayollarning savodli bo'lishi bilan bog'liq hodisa deb baholashgan. Ular kishilar ongida ayollarga hurmat-ehtirom tuyg'usini uyg'otish uchun sharafli harakatlar olib borar ekan, qizlarga o'g'il bolalardan kam e'tibor qaratmaslik kerakligini bot-bot uqtirishar, birinchi navbatda ularning o'zlariga xalqqa o'rnatilgan bo'lib yo'l ko'rsatishardi.

Misol uchun, Mahmudxo'ja Behbudiy dastlabki ta'limni olishi uchun qizi Parvinaxonni (Surayyaxon ham deyishadi) o'n yoshigacha Abduqodir Shakuriyning “usuli jadid” maktabiga beradi. Keyin uy sharoitida qo'shimcha o'qib-o'rganishi uchun rus hamda fransuz tillari muallimlarini yollaydi, shu tariqa kerakli muhitni yaratib beradi. Behbudiy bu xatti-harakati orqali o'g'illar qatori qizlarning ham xat-savodli bo'lishi, ko'proq til o'rganishi kerakligini uqtiradi.

O'zbek adabiyotining yorqin namoyandaligidan biri Cho'lpon – o'z ijodida ayollarni ulug'lab, ayni paytda ularning jamiyatda murakkab jarayonlar ishtirokchisi ekanini ham unutmaydi. Asli toshkentlik muallim Nurmuhammad Dadamuhammedovning qizi, shoir Cho'lponning 17 yashar shogirdi Matluba Muhammadxonim o'z zamonasida “Xalqimga” she'ri bilan sovet davlatini larzaga solgan edi. “Mudom Chorning qo'lida ko'p ezilgan Millatim” misrasi bilan mashhur bu she'r Yevropa gazetajurnalida qayta-qaytalab bosilib chiqadi. Oqibatda ish shoira o'qiyotgan Moskvadagi O'zbek maorif institutining yopilishigacha borib yetadi. O'shanda matbuotda faol chiqishlari bilan shuhrat qozongan jadid, olim Sattor Jabbor bu o'tli misralarni nemis tiliga o'girib, “...ezilgan Millatim” ahvolotini olamga yoyadi. Bu haqda tarjimonning o'zi: “Sovetlar qanchalik bosim qilmasin, adabiyotimiz Cho'lponlarni yetishtirishda davom etmoqda, millatning orzu-maqсадlari shu fidoyi qizning qalbidan otilib chiqmoqda”, deydi faxr bilan.



Rasuljon Rahimovning ayoli Rahbarxon va qizi Farida. 1953-yil, Andijon.

Yana bir muhim jihat – xotin-qizlarning xorijda o'qishi masalasi. Qizlar shundog'am oddiy maktabga qatnashining o'ziyoq jiddiy qarshiliklarga uchratgan bir vaqtda ularning tahsil uchun xorijga yo'l olishini hech ikkilanmay jasorat atash mumkin. Yosh shoir Botu 1922-yil kuzigacha Germaniyaga o'qishga otlangan talaba qizlardan biriga, mohiyatan esa barchasiga qarata “Ehtiyot bo'l, go'zal qush” nomli she'r bitadi. She'r-ku she'r, birgina “ehtiyot bo'l”ning o'zida ayolni qanchalar avaylab-asrash, parvozini qiymatlik va yana... er kishi bo'lib ayol taqdiridan xavotir olish seziladi.

Holbuki, tarix sahnida hali nomlari zikr etilmay, ammo yozilsa har biri alohida kitob bo'lgulik nafosat qissalari bisyor. Xalqni ma'rifatga, hurriyatga etishda ularning hissasi-xizmatlari ozmi deysiz?! Qatag'on domiga tushgan har bir jadedning ahli ayoli kechinmalari, ta'bir joiz bo'lsa, o'z holicha jasorat kitobi bo'lib o'qilgay. Ulardan o'q ilmay qolgan ikki kitob, ikki yozuq, ikki munisa – Mahfirat ona Yusufova hamda Rahbarxon aya haqida so'ylaymiz.

Mahfirat ona Yusufova (O'rozaliyeva) – Andijon shahrida ilk bor musulmonlar sovetini tashkil etgan, 1921-yili bolsheviklar tomonidan o'tib tashlangan jadid Olimjon hoji Yusufovning qizi, shaharning eng o'qimishli, madaniyatli, ma'rifatli ayollaridan bo'lgan. U jadidlar ilgari surgan g'oyatashabbuslarni xalq ongi tafakkuriga nafaqat ta'lim, san'at vositasida ham tezroq yetkazish mumkinligini erta anglagan holda, ko'p xayrli ishlar boshida turadi. 1925-yili Andijondagi “Besh-

bosh”, so'ngra Andijon yog'moy zavodida badiiy havaskorlar to'garagini tashkil etadi. Aslida, bu ayol maqomi-martabasini yaqqol sezish uchun uning ta'lim-tarbiyasida bo'lgan ko'plab atoqli san'atkorlardan Xalq artistlari Tamaraxonim, Halima Nosirova, Gavhar Rahimovani sanab o'tishning o'zi kifoya. Shogirdlar har safar Andijonga qadami yetganda ustozini, albatta, yo'qlashar, xonadonida tongotar suhbatlar qurishardi.

Mahfirat ona o'sha qattol zamonda bevaqt yashab o'tgan ko'psonli ayollardan ediki, oldiniga otasi, keyin turmush o'rtog'i (jadid, diplomat Akbar O'rozaliyev) qatag'on tig'iga uchratganda najot, adolat istab kirmagan eshigi qolmaydi, tegishli idoralarga betinim ariza, iltimoslar yo'laydi. Ularning sa'y-harakatlari bilan padari buzrukvori hamda turmush o'rtog'ining nomlari oqlanib, bugun Andijon ko'chalari bu jadidlar ismi qo'yilib, nomlari abadiylashtirilgan.

Rahbarxon ayani esa rosmata matonat timsoli, desak yangilash bo'lmaydi. Turmush o'rtog'i taniqli jadid, siyosiy rahbar, publitsist, dramaturg Rasuljon Rahimov xalq orasida obro'-e'tiborga ega ijodkorlardan edi. Uning qalamiga mansub “Ontarish”, “Xoin” dramalari 30-yillarda Andijon va O'sh teatrlari sahnasida namoyish etilib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lgan. Shunday ma'rifatparvar insonning rafiqasi bo'lish Rahbarxon aya zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklana, Rasuljon Rahimov uchun “O'zbekistonning necha qizlari ichidan saralab, zo'rg'a diydoriga yetgan” yu bilan turmushi – oilada halovat, ijodda unum, hayotda farog'at edi. Toki...

1937-yil 21-avgust. Rahbarxon ayaning yaqin qarindoshlaridan besh kishi: turmush o'rtog'i Rasuljon Rahimov Andijonda o'z uyida, amakisi Usmonxon Eshonxo'jayev Moskvada, tog'asi Shohruh Xolbotirov Samarqandda, tog'asi Sultonmohmud Xolbotirov hamda amakisi Mamatxon Eshonxo'jayev – bari hibsga olinadi. Rahbarxon aya yolg'iz boshi bilan beshovlonni avvaliga oila bag'riga qaytarish uchun yelib-yugurgan bo'lsa, otuv hukmidan so'ng nomlarini oqlash uchun o'zini o'qqa-cho'qqa urdi. Boyaqish, turmush o'rtog'ining fojiali taqdirini bilish, haqiqatni tiklash ilinjida uzoq Xabarovsk o'lkasiga, NKVDning Amursk lagerigacha yo'l bosadi.


Shu o'rinda mahbus Rasuljon Rahimov o'zining beaybli yuzasidan O'zbekiston SSR Bosh prokuroriga yo'llagan murojaatiga ko'z tashlar ekanimiz, ariza nohaq qamalgan mahbus holatidan ko'ra ko'proq sog'inch ifodasi o'laroq o'qilishiga guvoh bo'larniz. Mana, undan parcha:

“Qimmatli rafiqam! Sizga sog'inchli salomlarni ko'ndirish” so'ngida ayriqliq azobi orqada qolib, sevinchli kunlarning tez yetuvi va diydor ko'rishuvni tilyaman. Meni yoningizdan olib ketgan vaqti ertalab bo'lib, ustingizda qizil ko'yilak bor edi. Katta ko'cha ustida turib: “Qachon kelasiz?” deganingizda NKVD xodimi “soat 12 larda keladi”, deb aytib edi. Bugun ular aytgan “12 larning nechtasi o'tib ketdi. To'rt yildirki Sizdan, ko'zim nuri qizimdan yiroqdaman. Axir bu kunlar qancha og'ir va mudhish bo'lmasin, ko'z o'ngimdan bir minut nari ketmaysizlar. Menga qarab “Qachon kelasiz?” degan so'zingiz hozirgina aytilganday qulog'imga tovush berib turar. Rahbar, men ma'naviy jihatdan o'lik va ruhiy tarafdin sog'lig'ini yo'qotgan, qolaversa, hamma narsadan judo bo'lgan, ayniqsa, O'zbekistonning necha qizlari ichidan saralab, zo'rg'a diydoriga yetgan suyug'illikdan uzoqdaman. Bilsangiz, bu men uchun oson bo'lmas. Ammo bir narsa, u ham bo'lsa hukumat adolat qilar, ishim tekshiril, bu kutayotganlar qatoridan Vatanimga qaytarmam... Mana shu umid meni ushlab turadi, shu umid bilan yashayman”.

Ayol nainki hamma zamonlar, har qanday sharoitda ham muqaddas mo'jizalari Uni shundayin muqaddas bilgan, e'zozlagan insonning-da, millatning-da ertasi yorqin bo'lajak. Shoir yozganidek: “...Men ayol zotida bir jahon ko'rdim, U barcha insonning ma'sum buniyodi”.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON

QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Shokirjon Rahimiy – 1893-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 1909-yili otasidan ayrilgach o'qituvchi bo'lib ishlagan. 1914-yili yozgi mavsumda mahalliy aholi orasidagi progressiv yo'nalishda keng yoyilgan “Sadoyi Turkiston” gazetasida musahhihlik qilgan. Oktyabr to'ntarishidan so'ng maktablarda va Toshkent Eski shahar xalq maorifi bo'limida instruktor, 1918-yildan partiya a'zosi, 1921-yildan Toshkent Eski shahar siyosiy maorif mudiri, 1923-yil xalq maorifi bo'limi mudiri, Toshkent oblasti xalq maorifi bo'limi mudiri bo'lib ishlagan.

Abdurauq Fitrat va Qayum Ramazon bilan hamkorlikda “Kattalarga o'qish”, “Alifbe” darsligi, “Kattalar yo'ldoshi”, “Kattalar alifbosi”, “Savod”, “O'zbek tili”, “Ish kitobi” singari darslik va o'quv qo'llanmalarga mualliflik qilgan. 1930-1931-yillarda “Milliy itihod”chilar ustidan bo'lib o'tgan sudidan keyin Toshkent maorif tizimidagi muassasalarda ishlagan. Millat bolalarini savodli qilish yo'lidagi fidoyi xizmati mustamlakachi tuzum tomonidan aksilinqilobiy harakat sifatida baholaniib, 1937-yil 5-avgustda xalq dushmani sifatida qamoqqa olingan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktyabrda yig'ilishida otuvga hukm qilingan.

Abduqayum Madalimov – 1882-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Hibsga olingunga qadar Toshkent shahrida yashagan. 1929-yili 6-noyabrda qamoqqa olingan. Bosmachilarni uy-joy bilan ta'minlashda, 1929-yili soliq to'lashdan bosh tortgan boylarni yashirganlikda, batraklarni ustidan jazolashda, siyosiy hayotda sovetlarga qarshi targ'ibot olib borganlikda ayblangan. 1931-yil 25-aprelda RSFSR Jinoyat kodeksining 58/10-, 59/3-moddalariga binoan 10 yil muddatga konslager qamoq-giga hukm etilgan. 1989-yil 29-martda reabilitatsiya qilingan.

Shorasul Zunnunov – 1900-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Maktabda o'qituvchilik qilgan. 1929-yil 6-noyabrda qamoqqa olingan. U “Milliy istiqlol” g'oyasiga monand millatchilik mafkurasini tarqatganlikda aybdor deb topilgan. RSFSR Jinoyat kodeksining 2-qismi 58-moddasi 10-bandiga asosan OGPU kollegiyasining 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan Shorasul Zunnunov 10 yil konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 28-martda reabilitatsiya qilingan.

Yoqub Omon – 1903-yili Namangan shahrida tug'ilgan. “Yangi Farg'ona” gazetasida tilmochlik qilgan. “Milliy istiqlol” tashkiloti rahbariyatining ko'rsatmasi bo'yicha Sovet hokimiyatini qurolli kurash va intervensiya yo'li bilan ag'darish maqsadini olib borganlikda, “Botir gapchilar” faoliyatida ishtirok etganlikda, Qo'qon bosmaxonasidagi ishchilar orasida aksilinqilobiy ishlar olib borganlikda, paxtachilik bo'yicha dasturni barbot qilishga qaratilgan ishchi dehqonlarni qo'llab-quvvatlaganlikda ayblangan. U 1930-yil 31-yanvarda hibsga olingan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-bandi va 10-moddasiga binoan OGPU kollegiyasining 1931-yil 25-apreldagi yig'ilishida 10 yil muddatga konslagerga hukm etilgan. Yoqub Omon 1989-yil 4-aprelda reabilitatsiya qilingan.

Nosir Zokirovich Erkin – 1899-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. “Yangi Farg'ona” gazetasida texnik muharrirlik qilgan. U “Milliy istiqlol” direktivasi bo'yicha aksilinqilobiy tashkilot “Botir gapchilar”ni tashkil etgan va uning faoliyatiga rahbarlik qilgan. 1925-yildan 1929-yilgacha aksilinqilobiy tashkilot “Temur”da faol ishtirok etganlikda, sovet hokimiyati olib borayotgan tadbirlarni barbot qilganlikda ayblangan. 1930-yil 31-yanvarda qamoqqa olingan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-bandi va 10-moddasi bilan 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasining qaroriga muvofiq 10 yil muddatga konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 4-aprelda reabilitatsiya qilingan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi.
(Davomi kelgusi sonida).

BOQIY MEROS

IBRATDAN IBRAT OLAYLIK

Atoqli ma'rifatparvar Ibrat domla shahar va qishloqlarda ta'lim, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat baravar rivojlanishiga millat najot topishi mumkinligi haqida kuyinib yozadi. Shu bois u ushbu maskanlarda madaniyat o'choqlari, ta'lim muassasalari, turli maishiy inshootlar barpo etilishini orzu qilgan.

Men Is'hoqxon Ibratning “Tarixi madaniyat” va “Mezon uz-zamon” asarlarini o'qib bir xursand bo'lsam, bir o'ksiymam. Chunki bu asarlarda yig'im-terim ishleri tugagach, mahalliy dehqon yigitlarning ko'klamgacha “gapma-gap” tarallabedod yurib vaqtini behuda isrof qilishi nadomat va taassuf bilan qalamga olingan.

Men bu dalillarni bejiz keltirayotganim yo'q. Xo'p, gapni sal olisroqdan boshlaymiz. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan To'raqo'rg'on tumanida, ya'ni men tug'ilib o'sgan maskanda Namangan davlat chet tillari institutining filologiya va tillarni o'qitish fakulteti ochildi. Is'hoqxon To'ra bobomiz orzu qilganidek, yurtimizning chekka hududlarida ham markaziy shaharlarda bo'lgani kabi zamonaviy ta'lim muassasalari qad rostlayotgani jadid ma'rifatparvarlarining asiy orzulari ushlayotganiga yorqin misoldir.

Men maktabda o'qiyotgan paytimdayoq Is'hoqxon Ibrat haqida ancha-muncha ma'lumotga ega edim. Uning yurtimiz ravnaqi, xalqimiz ma'rifati yo'lidagi sa'y-harakatlari bilan tanishib, ko'nglimda bunday fidoyi ajdodimizga nisbatan cheksiz hurmat paydo bo'lgan.

Biroq institutga o'qishga kirganimdan so'ng buyuk bobomizni mutlaqo yangidan kashf etdim. Bunda menga Ibrat bobomizning “Ma'naviyat” nashriyatida chop etilgan “Tanlangan asarlar”i juda katta yordam berdi. To'g'risini aytсам, ushbu kitobni ikki marta o'qib, har safar undan yangidan-yangi hikmatlar topaverdim.

Ibrat domlaning har bir chiqishi, adabiy-ma'rifiy asarlari, maqolalarida odamlar hayotida



chuqur ildiz otgan turli xil illatlarni bartaraf etishga, kundalik maishiy muammolar bilan o'rnlashib qolib, millat va mamlakat taqdirini unutilib qo'yayotgan yoshlarni o'qib-izlanishga, bunyodkorlikka da'vat yangraydi. Xalqimizni yagona maqsad yo'lida birlashtirish, ilg'or davlatlardan ibrat olib yangilikka intilish, yoshlarni ilm-fan cho'qqilarini egallashga undash uning eng katta orzusi edi.

Is'hoqxon Ibrat o'zining “Tarixi madaniyat” asarida madaniy shahar haqida yozib, bunday manzilda: “...kimki qaysi ilmi xohlansa, ani ta'lim beraduragan muallimlar bo'lsa, arz qilganda, arz-holini bilib javobini qaytarsa, yaramas odamlar uchun jazoxonalar, omonat qo'ymoq uchun xiyonat qilmaydurgan omonatxonalar bo'lsa, ahli ilmlarning qadri yaxshi bo'lsa, nodonlarni o'z holiga qo'ymasa, fikr va ilm-u hunar o'rgatsa,

har kishi o'z ishiga mashg'ul bo'lib, bekorga ko'chalarda va samovarlarda o'turmasa”, deb qayg'uradi.

Biz bugun Ibrat yashagan davrni faqat kitoblar, nuroniylarning suhbatlari orqali bilamiz. Ular har qanday qiyinchilikka qaramay, millat yoshlari uchun tom ma'nodagi ibrat namunalari ko'rsatdilar. Yillar davomida yo'l azobi, iqtisodiy qiyinchiliklar hamda hukmdorlarning zug'umlariga qaramasdan, dunyoning rivojlangan davlatlariga safar qilib, yurtimizga ilm-fan, madaniyat va ma'rifat uchqunlarini olib kelishga harakat qildilar. Xususan, Ibrat muallim o'z sarmoyasi evaziga yurtimizga ilk tipografiya uskunasi olib kelib, zamonaviy bosmaxona faoliyatini yo'lga qo'ydi. Zotan, u foydali ma'rifiy asarlarni nashr etish orqali odamlarni jaholat botqog'idan qutqarishni niyat qilgan edi. Bugun

bitta xorijiy tilni chala o'rganib, ko'ksiga uradigan tengdoshlarimga o'z vaqtida Ibrat bobomiz yettita tilni mukammal bilganini eslatib qo'ygim keladi.

Hozirgi kunda yoshlarning o'qishi, ishlashi va munosib hayot kechirishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. Bundan yuz yil avval Ibrat bobomiz orzu qilgan kunlar yetib keldi. Xo'sh, biz, bugungi yoshlar jadid bobolarimizga haqiqiy izdosh bo'la olaymizmi? O'qishda, hayotda ulardek bo'lishga harakat qilyapmizmi? Biz bugun bir paytlar jadid bobolarimiz orzu qilganidanda ko'proq sharoit va imkoniyatlarga ega bo'lsak-da, ayrim tengdoshlarimizning buning qadriga yetmasdan, qimmatli vaqtini behuda sovurayotganini ko'rganda ana shunday savollar menga tinchlik bermaydi.

Chindan ham, hozir yoshlar uchun barcha narsa muhayyo! O'zimizdan misol keltiradigan bo'lsam, men muhtaram Prezidentimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan to'liq foydalanayman, deya olaman. Masalan, hozirda dual ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qiyman, ya'ni tushlikkacha barcha zamonaviy, qulay va shinam auditoriyalarda tahsil olaman.

O'qishdan so'ng Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyida ishlayman. Muzey institutimiz professor-o'qituvchilari va talabalarining sevimi maskaniga aylangan. Shuningdek, tumanimiz, viloyatimiz, hatto mamlakatimizning olis hududlaridan keladigan mehmonlar uchun ham eshigimiz hamisha ochiq.

Shukurki, biz ajdodlarimiz orzu qilgan dorilomon kunlarda yashayotgan baxti kulgan yoshlarmiz. Buni his qilishning o'ziyoq kishiga o'zgacha kuch-quvvat, ishtiyoq bag'ishlash bilan birga, katta mas'uliyat ham yuqalaydi. Biz buyuk allomalimiz, xususan, jadid bobolarimizning orzularini ro'yobga chiqarishga mas'ul ekanligimizni aslo unutmasligimiz zarur.

Durdona ZOKIROVA,
Namangan davlat chet tillari instituti talabasi



MULOHAZA

...O'tgan yil bahorida ko'chamizga berilgan atama lavhalarini tarqatishganida hamma ajablendi – "Charog'bon". Yo'q, atama mazmun-mohiyatan yaxshi – insonni yorug'likka undaydi. Ajablanganim, bizning elat asrlarki "Biyar elati" deb yuritiladi. Xon zamonlarida qaysidir bobomiz zimmasiga elga bosh bo'lmoq – biylik tushgan. Elatdagi qirgandan ortiq xonadon egalarning laqablari ham shu bobomiz tufayli – biy. O'sha ko'chada yashaydigan xonadonlarning sakson foizi biylar avlodlaridir.

Yeti-sakkiz yil oldin elatning boshqa bir ko'chasi "Kulollar" deb nomlanganida ham ajablandim. Negaki, o'tgan asr boshlarida elatimizning huv chekkasida bir kulol yashab o'tganini eshitganmiz. Uning avlodlari hozir ko'pi bilan uch xonadonga yetmaydi. Bu yoqda "navishlar", "biylar", "shog'ollar" kabi laqabli ko'p uylik xonadonlar bor-da. O'shanda mahalla fuqarolar yig'ini mas'ullariga e'tirozlarimizni aytganimizda "Mayli, keyingi gal taklif-e'tirozlaringizni hisobga olib, sizlar ma'qul ko'rgan atamani qo'yamiz", deyishgandi. Mana o'sha "takliflarimiz inobatga olingani" – kimdir o'ylab topgan atama tanlangan. Tamom-vassalom!

Elatimizdan oqib o'tadigan ulkan ariq "Xitoy" deb ataladi. Ariq oxirida shu nomdagi katta qishloq bor. Bu qishloq kishilari yuz tuzilishi, so'zlashlari va ayrim urf-odatlariga ko'ra boshqa qishloq odamlaridan farqlanadilar. Tarixdan ma'lumki, 1172-yili Xorazmshohlar saltanati hukmdori El Arslon vafot etgach, uning ikki o'g'li o'rtasida taxt uchun salkam yigirma yil kurash ketdi. Da'vogar shahzoda Olovuddin Takash taxtni qo'lga kiritish uchun qoraxitoylar yordamida saltanatga ega chiqadi... Ikki da'vogar o'rtasida bo'lib o'tgan qaqshatqich janglarda yordamga kelgan qoraxitoylardan anchasi halok bo'lgan, jarohat olgan. Aynan yaradorlarga shoh o'z hududidan istiqomat uchun yer ajratib beradi. Xitoy qishlog'idagilar o'shalarning avlodlari. Qoraxitoylar tarixda nom qoldirgan katta urug'. Ularning hozirgi xitoylarga aytarli aloqasi yo'q. Ming yillik Xitoy qishlog'i atamasi o'zgartirilishiga esa aynan shu o'xshashlik sabab qilingan. Tarixda xitoylar yurtini Chin deb yuritilgan birorta mas'ulning yodiga kelmagan...


...Viloyat oynayi jahonida bir suhbatga nogoh ko'zim tushdi. Qadim Xiva shahri mas'ullaridan biri "Kaptarxona" mahallasi nomini o'zgartirish uchun yuqoriga taklif yubordik", deb bilag'onlik qilayotgan ekan. Xon zamonlaridan xotira atamani ko'r-ko'rona o'zgartirishga sabab... nom g'alatligi emish.

Mirzo Bobur baharlari "Boburnoma" asarida otasining shahid bo'lgani voqeasini keltirib "...jar yoqasidagi kaptarxonadan uchib shunqor bo'ldi" deb yozadi. O'sha zamonlarda raiyatda kaptar boqish rusm bo'lgani, bu an'ana tarzida hamon davom etayotgani hech kimga sir emas. Ayniqsa, kaptar boqishga xonlar ishtiroqmand bo'lishganki, bu ularning fe'l-atvori, tabiat mo'jizalariga munosabatini ham bildiradi. Tariximizdan so'g'lovchi atama "g'alatligi" uchun yurtdan badarg'a qilinadi.

Xorazm vohasining Hazorasp tumani hududidagi yoshi uch ming yil ekan arxeologlar

ATAMALAR... "ATALA"GA AYLANMASIN!

yoxud o'zlikni unutish asoratlari



tomonidan aniqlangan "Dev solgan" qal'aning ("Sulaymon qal'a" ham deyiladi) kunbotar tomonida Juvondir qishlog'i bor. Bu qishloqning yoshi qal'adan ham ulug'roq. Saljuqiylar hukmdori Sulton Sanjar va Xorazm hukmdori qizi To'rabekxonim o'rtasida tarixan ro'y bergan voqea ko'plab qadim bitiklarda qayd qilingan. Qishloq nomi ana shu voqea bilan bog'liq. Qishloq uchta mahalla hududiga bo'linganida birisiga el qadimiylik ramzi o'laroq "Juvondir" mahallasi deb nom berilgandi. Yaqinda esa... mahalla shoir va mirob Munis Xorazmiy nomiga o'zgartirildi. Ikki asr ilgari yashab o'tgan shoir va mirob asli Xivada tavallud topgan, uni Juvondir bilan bog'laydigan biror tarixiy voqea yoki holat yo'q. Salkam ming yillik atamani o'zgartirish kimga va nimaga kerak bo'lib qoldi?

Viloyatda mahallalar tuzilganida aksar qishloqlarning qadim nomi saqlab qolindi, aksarida esa bunga e'tibor qaratilmadi. Bizga qo'shni Dehqonobod qishlog'ida Os hamda Mitan elatlari bor. Os – eng qadim turkiy urug' bo'lib, bu atama butun qit'a – Osiyo atamasiga o'zak hisoblanadi. Vohada o'zagida "os" so'zi bor atamalar anchagina. Nezaxos, Pirnaxos. Va hatto ayrim tarixiy manbalarda Hazorasp atamasi Hazaros ko'rinishida keladi. Ogahiyning tarixiy asarlarida ham buni kuzatamiz. Mitan ham to'qson ikki bovli o'zbek urug'laridan birining nomi. Shu elatlarda tashkil qilingan mahallalarda necha ming yillik atamalar "o'gay"lik qildiki, ularga bog'-rog' bilan bog'liq atamalar tirkaldi. Yoki bizning qishloq atamasidagi Qulon, qishloq kunbotaridagi elatning Nukus elatlari nomlari ham o'zbek qavmlari atamalari hisoblanadi. Shu hududdagi mahallalar esa tamoman boshqa nomda.

Tarixiy atamalarning ko'r-ko'rona yo'q qilinishini sanayversak adog'i ko'rinmaydi. Yangi tirkalgan atamalar esa hokimlik kabinetlarida o'yab topilgan. Bu jarayonga na yerlik xalq, na tarixchi olimlar jalb qilingan. Shu sababdan yangidan qo'yilayotgan atamalar atrofida ham ajabto'vur ishlar ro'y beryapti.

...Qo'shni mahalladagi eng katta ko'cha Muhammad Yusuf nomi bilan ataladi. Yaqinda ushbu ko'chada yashayotgan katta-yu kichikdan "Ko'changiz kimning nomiga qo'yilganini bilasizmi?" deb so'radim va ularning: "Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf nomi bilan atalgan" degan javoblaridan yoqa ushladim. Demak, ko'chaga mashhur shoir nomini berish haqida kimdir bildirgan taklif qabul qilingan. Mas'ullar esa lavhalarini tarqatayotgan vaqtda shoir va shayx shaxsini chalkashtirib yuborgan.

Mustaqillikdan so'ng atamalarni milliy-lashtirish bo'yicha juda katta ishlar qilindi. Sovet tizimidan qolgan bizga yot atamalar borki, voz kechildi, ko'plab manzillarga qadim atamalar qaytdi. Bugun vohada o'zbekning to'qson ikki urug'i nomlari bilan atalgan o'nlab qishloq va yashash maskanlari bor. Do'rmon, Qiyot, Nayman, Qatag'on kabi qishloq va elatlar ahli ajdodlari xotirasi shu taxlit tiklanganidan xursand – "Biz do'rmonlikimiz yoki bizlar naymanlikimiz!" deb faxr-la aytishlariga izn berilgani uchun istiqoldan minnatdordlar. Qolaversa, atama o'sha hududlarda ming yillarki yashab kelgan urug'lar haqida ma'lumot beradi – avlodlar va ajdodlarni o'zaro bog'lab turadigan rishta hamdir.

Ammo yuqoridagi kabi holatlar ham borki, (oz emas) bu bilan elning xotirasi ustiga bilib-bilmasdan chiziq tortilgan.

...Elatimiz yonidan oqib o'tadigan katta ariq xalq tilida "Xitoy" (yana "Mesit") deb atalishini eslatgandim. Ammo bu ariq rasmiy hujjatlarda "R-5" deb qayd qilingan. "R" harfi nima ma'noni anglatadi? Ayrimlar uni rus tilidagi "reka" so'zi qisqartmasi deb ham o'ylaydi. Aslida "R" harfi "распорядитель", ya'ni "taqsimlovchi" so'zi tarjimasidir. Viloyatda xuddi shu kabi bitta harf va raqamli suv yo'llari anchagina – "R-3", "R-7", "R-7a", "R-8" va hokazo. Qizig'i, vaqt o'tib raqamli bu atamalar odamlar tilida "yerlashib" "Ertri", "Erpet", "Ersema", "Ervosem" ko'rinishini olgan. Bu atamalarni mazkur suv yo'llarining qadim

atamalariga almashtirish mavzusida o'tgan yili matbuotda ikki marta chiqish qilishimga to'g'ri keldi. Ammo o'tgan asrning qirqinchi yillarida qadim suv yo'llariga taqalgan sun'iy atamalar hali hamon yo'l ko'rsatkichlarida "manaman" deb turibdi. Ikki tanqidiy chiqishim viloyatdagi suv yo'llari tarmog'i uchun mas'ul tashkilot rahbarlarini uyqudan uyg'otmagach, mavzuga qaytib bu masalani viloyat hokimligi e'tiboriga havola qildim. Afsus, bu safargi e'tirozimiz ham havoda qolib ketdi. Mustaqilligimizning o'ttiz to'rt yilligi nishonlanadigan kezlarda ham salkam bir asr ilgari o'zgalar tomonidan sun'iy tarzda yopishtirilgan atamalar g'oyatda yashovchan ekanligini namoyon qilmoqda.

...O'quv dargohlarida bo'lib o'tadigan ijodiy uchrashuvlarda yoshlarning o'zlari yashaydigan joy atamasi va uning mazmuni haqida so'rashga odatlanmagan. Afsuski, aksar yoshlar bu savolimga "Bizning qishloq "partsyezd", "kommunizm" yoki "sotsializm" deb javob qaytarishadi. Sezamanki, ular sovet zamonida tarqalgan atamalarni ota-onalaridan eshitishgan. Kexsa avlod vakillari tillari hamon o'sha atamalarni aylantirib, chaynab yuribdi.

Viloyat markazi yoki tumanlarda boshqa hududlarga qatnaydigan jamoat ulovlari – avtobus yoki yo'nalishli taksilar peshtoqlarida ham eski atamalarga ko'zimiz tushadi: "Urganch-Kommunizm", "Bog'ot-Lenin-Atov" kabi. Yoki viloyat markazida harakatlanuvchi ulovlardagi "Водник", "Зональный" kabi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratadigan mas'ulning o'zi yo'q. Insoniyat tamadduni, taraqqiyoti va xalqlarning kelib chiqishini o'rganadigan olimlar inson ongi, tafakkurida ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar silsilasini bir avlod almashinuvi bilan bog'laydilar. "Ellik yilda el yangi" otaso'zimiz shunga ishora qiladi. Yurtimiz bir yarim asrlik mustamlakadan qutulib, tezkor taraqqiyot bosqichlarini tizimli bosib o'tmoqda. Bu insonlar zehniyatida ro'y bergan, berayotgan o'zgarishlarda ham ko'rinadi. Zero, jaded bobolarimiz elni ma'rifatga boshlaganlarida aynan zehniyatimizda inqilob qilish orzusida bo'lishgan. Bu degani eskilik sarqitlaridan qutulish, o'zligimizga qaytishdir.

Bugun og'riq bilan tilga olayotganimiz – joylarda atamalarning tartibsiz ravishda yo'q qilinayotgani, tushuniksiz atamalar tirkalayotgani – bir so'z bilan aytganda, atamalar ayrim hollarda "atala"ga aylantirib yuborilgani mas'ullar zehniyatida eskilik qusurlari halihamon mavjudligi, yashayotganidan dalolat!

...Ha, darvoqe, amaldagi yilda mahalla raislarining vakolatlari 3 yildan 5 yilga uzaytirilishi va shu bilan birga ayrim mahallalarni yiriklashtirish, ya'ni bir-biriga qo'shib yuborish nazarda tutilyapti. Ishonamizki, qayta qo'shilish jarayoni qadim atamalar saqlanib qolishiga ta'sir qilmaydi. Aksincha, yiriklashtirish tufayli asossiz ravishda olib tashlangan qadim atamalar yana o'z o'rniga qaytadi.

Ro'zimboy HASAN,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Yapon maktablariga keldi havasim

Aytishlaricha, Yaponiya maktablarida boshqa davlatlarda uchramaydigan qoidalar mavjud ekan. Ular boshqalardan shu jihati bilan ajralib turisharkan.

1. Maktablarda ishqi-romantik munosabatlarga yo'l qo'yilmaydi.
2. Yapon maktabi o'quvchisi maktab bufetiga kirmaydi. Sinfxonalarga davlat tomonidan uyushtirilgan ovqatlar olib kelinadi va o'quvchilar ularning hammasini yeyishga majbur.

3. Yapon maktablarida yozgi ta'til berilmaydi. 5 haftalik ta'til o'quv yili davrida beriladi va o'sha davrda ham o'qituvchilar o'quvchilar bilan muntazir shug'ullanib keladi.

4. Maktabda farrosh yo'q, bu vazifani o'quvchilarning o'zi bajaradi. Shuning uchun ham o'quvchilar hech qayerga ortiqcha narsalar tashlamaslikka va maktabni iflos qilmaslikka harakat qiladilar.

5. O'quvchilarga turli-tuman soch turmaklari, lak-bo'yoqlar qat'iy taqiqlangan.

6. Yapon bolalari forma kiyishga boshlang'ich sinfdan keyin o'tishadi.

7. Har bir yapon o'quvchisi suzishni bilishi shart. Maktablarda tashkil etilgan basseynlarda hammaga suzish darslari o'tiladi va ular bu san'atni juda yaxshi egallagan bo'lishlari kerak. Sinovdan o'ta olmagani o'quvchilar boshqa o'qituvchida qayta mash-



g'ulottlardan o'tgachgina, takroriy sinovga qo'yiladi.

8. Maktabda bir o'quvchining o'z iqtidori bilan alohida ajralib turishiga yo'l qo'yilmaydi. Yapon ta'lim tizimida "Iqtidorsiz o'quvchining o'zi yo'q" degan tushuncha ustuvor. Yapon maktabi har bir o'quvchini teng va betakror deb biladi, maktab ularni har tarafflama tayyorlashga yo'naltirilgan.

Yaponlar bolani qanday tarbiyalashni, o'qitishni biladi. Bunday bolalarning kelajagi porloq bo'lmay, kimning kelajagi porloq bo'lsin? Bu qoidalar sizgayam yoqdimi? Bularni bizda joriy etishga nima to'sinlik qiladi?

Hakimjon ERMATOV
Facebook

TILBILIM

XOTIN

"Xotin" deganda biz hozirda "turmushga chiqqan ayol" yoki "er" so'zining ziddini tushunamiz, "er-xotin" deyimiz, ya'ni turmushga chiqqan qizga nisbatan xotin deyilmaydi.

Ayni paytda, "xotin" – juda qadimiy so'z va u eng qadimgi turkiy yodgorliklarda ham ko'p uchraydi, shunday obidalardan biri – VIII asrga oid Kultegin toshbitigi, undan bir jumla keltiramiz: "Otam Eltarish xoqon (matnda: "qag'an")ni va onam Elbilga qatunni Tangri yuksakligida tutib (el ustidan) yuqori ko'tardi".

Guvohi bo'lganimizdek, bu so'zning qadimiy ko'rinishi – "qatun" va u hozirdagi ommaviy emas, balki faqat hukmdor oila ayollariga nisbatan ishlatilgan, ya'ni "xoqonning xotini" yoki "malika", "hukmdor ayol" ma'nalardagi unvon bo'lgan. Unvon ma'nosida bu so'z birinchi-ikkinci Sharqiy-G'arbiy Turk xoqonliklarida qo'llangan.

Ko'kturklardan biroz keyin – Qoraxoniylar xoqonligi davriga (IX-XIII asrlar) oid manbalarda ham bu so'z ayni shaklda uchraydi. Xususan, o'sha davrda yashagan bobomiz Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit-turk"da uni shunday izohlaydi: "qatun – Afrosiyob qizlaridan bo'lganlarning nomi. Maqolda shunday kelgan: xan ishi bolsa, qatun ishi qalir – xoqonning ishi bo'lsa, xotin ishi qoldiril". Ma'lumki, Qoraxoniylar o'zlarini Afrosiyob yoki Alp Er To'nga avlodlari deb bilganlar, Koshg'ariyning "qatun" so'ziga keltirgan mazkur izohi ham shu bilan bog'liq bo'lishi mumkin.



Yana bir qiziq jihati, qadimda "qatun" so'zidan "qatunlandi" shaklida fe'l ham yasalgan ekan, ammo u aslo hozirgi tilimizdagi: "qiz xotinga aylandi" ma'nosida emas, xususan, "Devon"da unga shunday izoh beriladi: "Qatunlandi: urug'ut qatunlandi – ayol qatunlarga o'xshadi, ular darajasiga yetdi". Bu yerda hozirgi tilimizdagi "xotin", "ayol" ma'nosida – "urug'ut" so'zi ishlatilyapti, uning "qatunlanishi" esa – quyi tabaqaga mansub urug'utning (ayolning) hukmdor tabaqaga mansub asilzoda ayolga – qatunga tenglashishi, muayyan ijtimoiy mavqega erishganini bildiradi.

Umuman, keyingi davrlarda ham "qatun" ismi barcha turkiy hukmdor sulolalarda unvon sifatida qo'llanganini tarixdan bilamiz. Xususan, Saljuqiylar davlatida barcha malikalar "turkan qatun", "qatun" deb atalgan. Anushtegin-Xorazmshohlar sulolasidan Muhammad Xorazmshohning onasi ham Turkan Xotun edi. Bundan tashqari, Hindiston, Misr hududlarida hukmdorlik qilgan mamluklar yoki turkiy sulolalarda ham bu an'ana saqlangan.

Shuningdek, usmonlilarda ham sultonlarning xotinlariga nisbatan "xotin" deb aytilganini bilamiz, ayni paytda, usmonli turkchasi "ayol" ma'nosida bu so'zning "kadin" shakli ham saqlangan.

Abduvohid HAYIT

Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Dilmurod Do'stbekov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 8 296
Lotin yozuvidagi adadi – 12 626
Media kuzatuvchilar – 35 377
Buyurtma: G – 340.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxonasi: (71) 203-24-20
Devonxonasi: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

**"Sharq" nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.**
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:20
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz